جديد

2026-yil 10-iyul
№ 28 (132)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

G‘OLIBLAR GERMANIYADA

“...Berlin shahridagi ta’lim va madaniyat muassasalari bilan tanishuv davomida ishtirokchilar dastlab Borsigwalder Grundschule maktabida bo‘lib, o‘quvchilar bilan muloqot qildilar. Uchrashuv davomida tanlov g‘oliblari jadidlar ijodi, o‘zbek madaniyati, milliy an’analar va O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti haqida taqdimotlar o‘tkazdilar...”



(2-sahifada o‘qing).

YETTIKUN

GLOBAL SIYOSAT, YIRIK KAPITAL VA RENESSANS

So‘nggi hafta Yangi O‘zbekistonning zamonaviy tarixiga, shubhasiz, eng sermahsul, faol va strategik jihatdan muhim davrlardan biri sifatida muhrlanadi.

Bir hafta ichida O‘zbekiston xaritasida Kavkaz portlaridan tortib, Sharqiy Yevropaning sanoat markazlarigacha bo‘lgan yangi yo‘nalishlar chizildi.

Dunyo moliya tizimini nazorat qiluvchi 14 trillion dollarlik sarmoyaga ega yirik kompaniya Toshkentga ishonch bildirdi.

Islom ma’rifatining asl mohiyati butun dunyo olimlari ishtirokida qayta talqin etildi.

(Davomi 2-sahifada).

SEMINAR



ZOMINDA yana adabiyot bayrami

Adabiyot – millat qalbining jarangdor sadosidir. Har bir xalq asl qiyofasini o‘zining adabiyoti orqali namoyon qiladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan an’anaviy Zomin seminari qariyb o‘ttiz yildirki, yosh iste’dodlarni kashf etish uchun katta bir sahna vazifasini o‘tayapti. 7–9-iyul kunlari Zominning so‘lim tabiati bag‘rida navbatdagi anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda respublikamizning barcha hududlaridan 136 nafar yosh qalamkash ishtirok etdi. Ular orasida ijod maktablaring iste’dodli o‘quvchilari ham bor. Har yilgidan farqli o‘laroq, bu galgi tadbir qamrovi kengaygan: qo‘shni Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston davlatlarida o‘zbek tilida ijod qilayotgan yosh ijodkorlar ham taklif etildi.



(Davomi 8-sahifada).

ILM YO‘LI

MONTESSORI FAQAT ZAMONAVIY MAKTABMI?



“Namuna” xalqaro Montessori maktabi asoschisi Muhammad RASUL bilan suhbat

– Bilamizki, yurtimizda Montessori mutaxassislarini tayyorlovchi oliygohlar yo‘q. Siz esa birinchilardan bo‘lib haqiqiy Montessori ta’lim tizimida faoliyat yuritadigan “Namuna” xalqaro maktabini ochgansiz. Bosib o‘tgan yo‘lingiz haqida to‘xtalib o‘tsangiz.

– Assalomu alaykum. Dastlab Jahon tillari universitetining ingliz tili fakultetini tamomladim. Keyin Latviyaga magistratura yo‘nalishiga o‘qishga kirdim. O‘qish bilan bir paytda qisman Montessori maktabida ham ishladim. Montessori metodi, falsafasiga qiziqish shu ondan boshlandi va O‘zbekistonga ham bu metodni olib kirish ishtiyoqida yona boshladim. Chunki Maria Montessori ishlab chiqqan bu metod dunyoning qaysi burchagida bo‘lishidan qat’i nazar har bir bolaga mos keladi.

– Ushbu ta’lim tizimi butun dunyoda mashhur. Hatto, ba’zi davlatlar maktabgacha va maktab ta’lim tizimida Montessori metodidan to‘liq foydalanishi haqida o‘qiganmiz. Lekin hali-hanuz bu haqda ko‘pchilik to‘la ma’lumotga ega emas. Uning mohiyati va falsafasi haqida gapirib bersangiz.

– Montessori maktabining eng katta yutug‘i bolaning tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashida.

(Davomi 6-sahifada).

TAKLIF

ADIBLAR XIYOBONI

turkiy xalqlar madaniy birligining ramzidir!

Bir millatning tarixiy xizmatlari faqatgina muazzam binolar va moddiy obidalar bilangina emas, balki ilm-fan bo‘yicha yaratgan ma’naviy yodgorliklari bilan ham baholanadi. Bu voqelikni jahondagi katta-kichik mamlakatlar misolida ko‘rish mumkin. Xususan, Misrdagi buyuk ehromlar va ularning hayratlanarli qurilish san’ati, yunon ilm-fani yodgorliklari, shuningdek, Hindiston va Xitoyning madaniy merosi fikrimizga shahodat beradi.

Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi – buyuk tarix, buyuk davlat va buyuk madaniyat yaratgan millat. Bu yutuqlar tarix zarvaraqlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, ularning isboti minglab nodir qo‘lyozmalarni saqlab kelayotgan o‘zimizning hamda jahonning yirik kutubxonalarida mujassamdir. Shuningdek, bugungi kunda ham Misr va Erondan tortib, Hindiston, Afg‘oniston va qadim Turkiston zaminida qad ko‘tarib turgan shukuhli binolar, yirik olim va shoirlarimiz yaratgan ilmiy asarlar hamda tengsiz adabiy yodgorliklar ushbu tarixiy shijoatning inkor etib bo‘lmas dalillari hisoblanadi. Endilikda ushbu moddiy va ma’naviy boyliklarni chuqur o‘rganib, xalqimizga va jahon ahliga namoyish etish bizning bosh vazifamizdir.

(Davomi 3-sahifada).

VATAN MANZUMASI

Va’da



Yam-yashil dalada yayraydi diling,
Ruhingni erkalab esadi shamol.
Bir yonda sollanib tut marjon terar,
Bir yonda soch tarab turar majnuntol.

Tangadek oftobni yerga tushirmas
Yaprog‘i kaftimdek chinor, teraklar.
Bahor nasimidek mayin kuy chalar
Maysalar raqsiga oshiq yuraklar.

Naqadar otashin kechmoqda hayot,
Bosh uzra aylanar qismat romchisi.
Qalbingni hayratga solar har lahza
Ichingga sig‘magan quvonch tomchisi.

Yurak ne istaydi ilhomdan bo‘lak?
Bobolar qoni bor jo‘shqin bu tanda.
She’r yozmay bo‘larmi hapriqsa yurak
Taqdirim bitilgan aziz Vatanda?!

Gar boqsam samoga betakror zamin,
Bedov tug‘yonlarim sig‘mas osmonga.
Men buyuk qo‘shiqlar taqdim etgayman
Buyuklar maskani – O‘zbekistonga!

Nizomiddin ESHMURODOV,
Respublika Zomin seminari
ishtirokchisi

FAKT


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvining yagona integratsiyalashgan raqamli platformasini joriy etish, startaplar ekotizimini rivojlantirish hamda telekommunikatsiya sohasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O‘zbekiston BMTning “Elektron hukumat” reytingida 24 pog‘ona yuqoriladi. 2030-yilga qadar mamlakatimizni ushbu yo‘nalishda kuchli 30 ta davlat qatoriga kiritish maqsad qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasiga tashrifi davomida Minsk shahrida O‘zbekiston – Belarus do‘stligi xiyobonini barpo etish tashabbusi uchun mezbon davlat rahbari Aleksandr Lukashenkoga minnatdorlik bildirdi.

Vashington shtati, Sietl shahrida yashovchi yurtdoshlarimiz tomonidan “O‘zbek mahallasi” jamoat birlashmasi tuzildi. Tashabbusni shtat davlat kotibi Stiv Hobbs ham qo‘llab-quvvatlagan.

TADQIQ



SO‘Z VA SAHNA XURSHIDI

UZUMINI YEGANLAR...

Turli tantanalarda, nafis majlislarda yoki xilvat xiyobonlarda quyidagi bayt beixtiyor tilga keladi:

“Agar ko‘nglimni shod etsa
o‘shal Sheroz jononi,
Qaro xoliga baxsh etgum
Samarqand-u Buxoroni”.

Albattaki, yaxshi kishilarni hayratga solgan ushbu satrlar muallifini so‘raganlarga Amir Temur Ko‘ragoniy va Hofiz Sheroziy o‘rtasida kechgan iliq mutoyibani eslatgan bo‘lamiz va navbatdagi g‘azalni kamoli ehtirom ila qiroat qilishga tutinamiz:

“Ayo soqiy, sunib joming,
qil ehson yashnasin dillar,
Ko‘rindi avval ishq oson-u,
so‘ngra tushdi mushkullar.”


Undan keyin shoir-u she’r-u shuurning qizg‘in mashvarati boshlanib ketgay. Ammo bu yerda ham har galgidek, uzumini yeb, ha, mayli, boring ana, bog‘ini so‘raymiz-u bog‘boniga hech parvo qilmaymiz... Aslida, g‘oyibona tinglaganingiz ushbu satrlarni o‘zbek tiliga asliyat sifaticha o‘girgan mahoratli tarjimon Xurshid domla bo‘ladilar. Keling, men sizga u kishi haqida eshitib bilganlarimni so‘ylab berayin...

(Davomi 3-sahifada).

Boshlanishi 1-sahifada.

“OLTIN MO‘YNA” – YUKSAK E’TIROF

Gurjistonda bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralarning siyosiy salmog‘i va ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi yuksak ishonch Tbilisining muhtasham Orbeliani saroyida



yaqqol namoyon bo‘ldi. Imzolangan “Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi deklaratsiya aloqalarni mutlaqo yangi huquqiy va siyosiy maqomga ko‘tardi. Ushbu ishonchning eng yuqori oliy ifodasi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyevning mezbonlar oliy davlat mukofoti – “Oltin mo‘yna” ordeni bilan taqdirlanishi bo‘ldi.

Ilgari Buyuk Britaniya Qirolichasi Yelizaveta II, Germaniya Kansleri Gerxard Shryoder va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an kabi dunyoning eng nufuzli siyosatchilari loyiq ko‘rilgan bu mukofotning O‘zbekiston rahbariga topshirilishi Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan ochiq, izchil va tinchlikparvar tashqi siyosatning xalqaro miqyosdagi yuksak e’tirofidir. Aloqalarni tizimli va institutsional darajada mustahkamlash yo‘lida qo‘yilgan yana bir amaliy qadam O‘zbekistonning Gruziyada o‘z elchixonasini ta’sis etishi to‘g‘risidagi qaror bo‘ldi.

Har qanday siyosiy va iqtisodiy ittifoqning umri madaniy yaqinlik va xalqlararo do‘stlik bilan sug‘orilsagina boqiy bo‘ladi. Transport yo‘laklari va iqtisodiy loyihalar davlatlarni jismoniy jihatdan bog‘lasa, madaniyat, adabiyot va san’at ularning qalblarini birlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tarixiy davlat tashrifi doirasida Tbilisi shahrida o‘zbek xalqining ulug‘ farzandi, g‘azal mulkining sultoni, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykalining tantanali ravishda ochilishi ana shunday qalblar birligining eng go‘zal va ulug‘vor namoyishi bo‘ldi.

Hazrat Navoiyning ijodi asrlar davomida odamlarni insonparvarlik, ma’rifat, bag‘rikenglik, tafakkur va o‘zaro hurmatga chorlab kelayotir. Buyuk Shota Rustaveli yurtida daho bobomiz haykalining qad rostlashi gruzin xalqining o‘lmas qadriyatlarga bo‘lgan yuksak ehtiromining ifodasi bo‘ldi, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

GLOBAL SIYOSAT, YIRIK KAPITAL VA RENESSANS

I XALQARO FORUM

Mamlakatimizda umumbashariy va diniy qadriyatlarni ulug‘lash, boy ilmiy-ma’naviy merosni o‘rganish yo‘lida yangi tarixiy voqea yuz berdi – Islom sivilizatsiyasi birinchi Xalqaro forumi yuqori saviyada o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning forum ishtirokchilariga yo‘llagan tantanali murojaati anjumanning siyosiy, ma’naviy va strategik ahamiyatini yanada oshirdi.



Tarixdan ma’lumki, Movarounnahr zamini Islom renessansining markazi bo‘lgan. Bu zamindan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi buyuk daholar yetishib chiqqan. Forum ushbu boy merosning shunchaki o‘tmish emasligini, balki bugungi zamon uchun ham dolzarb ilm manbayi ekanini ko‘rsatdi. Anjuman O‘zbekistonni islom ilm-fani va madaniyatining tarixiy beshigigina emas, balki uning zamonaviy global markazi sifatida dunyoga qayta taqdim etdi.

Bugungi kunda dunyoda islomofobiya va boshqa tomondan ekstremizm kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Prezidentimiz o‘z murojaatida ta’kidlaganidek, Islom bu tinchlik, ezgulik, ilm-fan va bag‘rikenglik dinidir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu forum dinimizning asl ma’rifatparvarlik mazmun-mohiyatini dunyo jamoatchiligiga yetkazishda muhim minbar bo‘ldi. O‘zbekiston ushbu tashabbusi bilan ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li – kuch ishlatish emas, balki ma’rifat, ta’lim va ilmni yuksaltirish ekanini xalqaro miqyosda isbotladi.

“BLACKROCK” BILAN HAMKORLIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 7-iyul kuni jahon moliya bozorining mutlaq giganti – “BlackRock” kompaniyasi direktorlar kengashi a’zosi va katta boshqaruvchi direktori Adebayo Ogunlesini qabul qilgani mamlakatimizning iqtisodiy diplomatiyasida yangi tarixiy sahifa ochdi. “BlackRock” shunchaki investitsiya kompaniyasi emas. Bu butun boshli davlatlar iqtisodiyotiga ta’sir o‘tkaza oladigan, boshqaruvidagi aktivlari hajmi 2026-yilda 14 trillion dollarga yetgan dunyodagi eng yirik moliyaviy korporatsiyadir. Ushbu mablag‘ dunyoning eng rivojlangan davlatlari (masalan, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya) yalpi ichki mahsulotlarining yig‘indisidan ham ko‘pdir.

Dunyo moliya tizimida bir oltin qoida bor: “BlackRock” biror mamlakatga sarmoya kiritsa



yoki u bilan rasmiy sheriklik o‘rnatsa, dunyoning boshqa barcha yirik investorlari ham hech qanday shubhasiz o‘sha mamlakatga oshiqadi. “BlackRock”ning O‘zbekiston loyihalarida faol ishtirok etishi xalqaro maydonda yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini va kredit reytinglarini keskin oshiradi. Bu dunyodagi eng yirik suveren fondlar, pensiya jamg‘armalari va banklar uchun O‘zbekiston iqtisodiyoti xavfsiz hamda yuqori daromadli ekanini anglatuvchi jarangos qo‘ng‘iroqdir.

MINSK FORMULASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 8-9-iyul kunlari Belarus Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda aniq geoiqtisodiy va texnologik maqsadlarga qaratilgan pragmatik qadam bo‘lgani bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini jadal sanoatlashtirish va diversifikatsiya qilish yo‘lidan bormoqda. Bu jarayonda Belarus kabi kuchli sanoat, qishloq xo‘jaligi va IT-salohiyatiga ega davlat bilan hamkorlik Toshkent uchun juda muhimdir. O‘zbekiston Belarusdan faqat tayyor texnika sotib oluvchi davlat bo‘lishni istamaydi. Tashrifning eng katta ahamiyati sanoat kooperatsiyasini yangi bosqichga olib chiqishdir.

Mamlakatimizda Belarus texnologiyalari asosida qo‘shma korxonalar ochiladi. “MTZ” (traktorlar), “MAZ” (yuk mashinalari) va “Amkodor” (qurilish texnikalari) kabi yo‘nalishlarda O‘zbekistonda butlovchi qismlarni ishlab chiqarish va yig‘ishni mahalliylashtirish kengayadi. Bu esa O‘zbekistonda yuzlab yangi, yuqori maoshli muhandislik va texnik ish o‘rinlarini yaratadi; Mahalliy dehqon va quruvchilarimiz uchun zarur bo‘lgan texnikalarning tannarxini arzonlashtiradi.



Belarus sut va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash bo‘yicha dunyodagi eng ilg‘or texnologiyalarga ega. O‘zbekistonda esa aholi soni tez o‘sib bormoqda va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga talab juda yuqori. Tashrif doirasida O‘zbekistonda Belarus tajribasi asosida yirik sut-tovar fermalari va sutni chuqur qayta ishlovchi qo‘shma klasterlar tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bu o‘zbek iste’molchisiga ichki bozorda sut va go‘sht mahsulotlari narxining barqarorligini ta’minlaydi. Go‘sht-sut yo‘nalishida naslchilik va seleksiya ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekiston farmatsevtika bozori hamon xorijdan olib kelinadigan dori vositalariga sezilarli darajada qaram bo‘lib qolmoqda. Belarus esa ichki dori ehtiyojining 50 foizdan ortig‘ini o‘zi ishlab chiqaradi. Ikki davlat rahbarlari farmatsevtika sohasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirishni kelishib oldilar. Belarusning yetakchi dori ishlab chiqaruvchilari bilan hamkorlik O‘zbekistonda eng zarur, hayotiy muhim dori vositalarini (ayniqsa, onkologiya va kardiologiya yo‘nalishida) o‘zimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, bemorlar uchun sifatli va arzon dori-darmonlar ta’minotini kafolatlash imkonini beradi.

Belarus o‘zining Yuqori texnologiyalar parki (PVT) orqali milliardlab dollarlik dasturiy mahsulotlarini eksport qiladi. O‘zbekiston esa o‘z yoshlarini axborot texnologiyalari sohasiga faol jalb etmoqda. Toshkentdagi “IT-Park” va Minskdagi “PVT” o‘rtasidagi hamkorlik O‘zbekistonga o‘zbek dasturchilarining malakasini oshirish uchun Belarus tajribasini jalb qilish, AQSH va Yevropa bozorlariga chiqadigan yirik buyurtmalarni birgalikda bajarish va shu orqali mamlakatimizga valyuta tushumini ko‘paytirishni ta’minlaydi.

Har ikki davlat ham dengizga bevosita chiqish yo‘liga ega emas. Global sanksiyalar va geosiyosiy inqirozlar davrida ikki davlat ham transport koridorlarini diversifikatsiya qilishdan manfaatdor. O‘zbekiston va Belarus Yevroosiyo bo‘ylab yangi multimodal (temiryo‘l, avto va havo aloqasi) transport yo‘laklarini yaratish ustida ishlamoqda. Bu bizga tashqi savdo yuklarini xavfsiz, tezkor va kam xarajat bilan yetkazib berishning yangi imkonini beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Belarusga tashrifi O‘zbekiston uchun milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, oziq-ovqat va dori xavfsizligini ta’minlash hamda yoshlar uchun yangi axborot texnologiyalari va muhandislik ish o‘rinlarini yaratishda juda zarur bo‘lgan aniq texnologik va sanoat yechimlarini taklif qiladi. Minskdagi kelishuvlar O‘zbekiston milliy manfaatlarini ta’minlashga va ikki davlat iqtisodiy salohiyatini birlashtirishga qaratilgan yuksak pragmatik hamkorlik namunasidir.

Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston Yevroosiyo makonida o‘z so‘ziga, mustaqil transport yo‘nalishlariga, kuchli sanoat sheriklariga va ulkan global moliyaviy hamkorlariga ega bo‘lgan strategik tashabbuskorga aylanmoqda. Portlar va yo‘llar (Gruziya), texnologiya va sanoat (Belarus), yuksak kapital (BlackRock) hamda ma’naviy qadriyatlar (Islom sivilizatsiyasi forumi) bir nuqtada – Yangi O‘zbekistonda birlashdi.

Iqbol MIRZO

JADIDLAR IZIDAN

G‘OLIBLAR GERMANIYADA



Noibaxon MAMADALIYEVA,
Texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori maslahatchisi,
filologiya fanlari doktori

Yirik ma’rifiy loyihalardan biri – “Jadidlar izidan” respublika tanlovi yoshlarni jadidlar hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganishga, milliy uyg‘onish g‘oyalarini anglashga, mustaqil fikrlash va ilmiy-ijodiy izlanishlarga undash bilan birga, ularda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qilayotgani ahamiyatlidir. Tanlov doirasida saralangan g‘oliblar uchun Germaniya davlatiga tashkil etilgan ma’rifiy safar nafaqat rag‘batlantirish mexanizmi, balki O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy siyosati, xalq diplomatiyasi va xalqaro madaniy hamkorligining amaliy namunasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.



Tashrifning dastlabki kunlarida ishtirokchilar Germaniya poytaxti Berlin shahrining tarixiy va madaniy maskanlari bilan tanishdilar. Berlin devori yodgorligi, shaharning markaziy maydonlari, tarixiy binolari va muzeylari bo‘ylab tashkil etilgan ekskursiyalar yoshlarda Yevropa tarixining muhim bosqichlari haqida keng tasavvur hosil qildi. Shu bilan birga, Germaniyada istiqomat qilayotgan o‘zbek ziyolilari, pedagoglar va jamoat faollari bilan uchrashuv hamda muloqotlar davomida xorijda milliy qadriyatlarni saqlash, o‘zbek tili va adabiyotini targ‘ib qilish, yoshlarni milliy o‘zlik ruhida tarbiyalash masalalari muhokama qilindi.

Dasturning muhim voqealaridan biri O‘zbekistonning Germaniyadagi elchixonasida tashkil etilgan vatandosh pedagoglarning birinchi qurultoyi bo‘ldi. Mazkur anjuman “Jadidlar izidan” respublika tanlovi g‘oliblari hamda “Germaniyada Turkiston adabiyoti” ilmiy loyihasi vakillari ishtirokida o‘tkazildi. Qurultoyning asosiy maqsadi Germaniyada faoliyat yuritayotgan o‘zbek pedagoglari, tadqiqotchi va madaniyat targ‘ibotchilarini bir maydonda jamlash, ularning tajribasini umumlashtirish va kelgusi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilashdan iborat bo‘ldi.

Tadbir davomida “G‘arb va Sharq uchrashuvlari” jamg‘armasi Boshqaruv kengashi raisi Yelena Xoffmann so‘zga chiqib, Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy hamkorlikni rivojlantirishda bunday muloqot platformalarining ahamiyatiga to‘xtaldi. Qurultoy doirasida O‘zFA huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan tayyorlangan “Germaniyada Turkiston adabiyoti” to‘plamining birinchi jildi taqdimot qilindi. Loyiha rahbari, professor Shahnoza Madayeva mazkur nashrning Turkiston tarixi va adabiy merosini xalqaro ilmiy jamoatchilikka yetkazishdagi ahamiyati haqida ma’lumot berdi.

Shuningdek, loyiha ishtirokchisi sifatida men ham so‘zga chiqib, “Jadid davri namoyandalari faoliyatida standartlar, metrologiya va mahsulot sifati” mavzusida ma’ruza qildim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi olimlari tomonidan tayyorlangan ikki jildlik “Metrologiya fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk Sharq allomalari” hamda “Aniqlik va strategiya: Amir Temur davrida o‘lchashlarning ahamiyati” kitoblari taqdim etildi. Taqdimotda ushbu nashrlarning yaratilish jarayoni, ularda yoritilgan buyuk allomalarning metrologiya sohasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va ilmiy merosi haqida batafsil ma’lumot berildi.

Qurultoyning alohida qismi “Jadidlar izidan” respublika tanloviga bag‘ishlandi. Tanlov hakamlar hay’ati raisi Bahrom Irzayev tanlovning maqsadlari va natijalari haqida ma’lumot berdi. Shuningdek, tanlov g‘oliblari o‘zbek jadidlari ijodidan namunalar taqdim etib, milliy ma’rifatparvarlik merosining bugungi yoshlar hayotidagi o‘rni haqida fikr bildirdilar. Qurultoy ishtirokchilari tomonidan O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlikni yanada kengaytirish, talabalar va o‘quvchilar almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish, xorijdagi o‘zbek maktablari uchun zamonaviy o‘quv materiallari tayyorlash bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surildi.

Shundan so‘ng Gamburg universiteti talabalari ishtirokida davra suhbati tashkil etildi. Unda “Jadidlar izidan” tanlovi g‘oliblari jadidlar merosi, milliy uyg‘onish g‘oyalari va zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyoti haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Yoshlar o‘rtasidagi mazkur muloqot madaniyatlararo hamkorlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qildi.

Berlin shahridagi ta’lim va madaniyat muassasalari bilan tanishuv davomida ishtirokchilar dastlab Borsigwalder Grundschule maktabida bo‘lib, o‘quvchilar bilan muloqot qildilar. Uchrashuv davomida tanlov g‘oliblari jadidlar ijodi, o‘zbek madaniyati, milliy an’analar va O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti haqida taqdimotlar o‘tkazdilar.

Berlin Tabiatshunoslik muzeyining ekspozitsiyalari bilan tanishuv yoshlarda ilm-fanga qiziqishni kuchaytirish va tabiatni o‘rganish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shundan so‘ng Berlinning mashhur Muzeylar orolida joylashgan Yangi tarix muzeyida insoniyat sivilizatsiyasi, qadimiy madaniyatlar va jahon merosi namunalari bilan tanishish imkoniyati yaratildi. Safar Reyxstag binosi va uning mashhur gumbaziga ekskursiya bilan yakunlandi.

Mazkur tashrif nafaqat tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish tadbiri, balki O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy siyosati, xalq diplomatiyasi va xalqaro ta’lim hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik tashabbus sifatida ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, jadidlar merosini xalqaro maydonga olib chiqishga xizmat qildi. “Jadidlar izidan” tanlovi doirasida tashkil etilgan mazkur tashrif jadid harakatini mahalliy tarixiy hodisa sifatida emas, balki zamonaviy ta’lim, millat taraqqiyoti va ma’rifat g‘oyalariga asos solgan umuminsoniy qadriyat sifatida xalqaro auditoriyaga taqdim etish imkonini yaratdi. Germaniya universitetlari, maktablari va ilmiy doiralarida jadidlar haqida ma’lumot berilishi O‘zbekistonning intellektual merosini xalqaro akademik muhitga olib chiqishga xizmat qildi.

Ikkinchidan, xorijdagi vatandoshlar salohiyatini mamlakat taraqqiyotiga yo‘naltirish uchun yangi platforma shakllantirildi. Germaniyada istiqomat qilayotgan o‘zbek pedagoglari, olimlari va tadqiqotchilarining birinchi qurultoyi mamlakat tashqarisida shakllangan intellektual kapitalni birlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

Uchinchidan, yoshlar diplomatiyasining yangi modeli sinovdan o‘tkazildi. Safar davomida o‘zbek va nemis yoshlari o‘rtasidagi bevosita muloqotlar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning kelajak avlodlar darajasida mustahkamlanishiga xizmat qildi. Bu jarayon rasmiy diplomatiyani to‘ldiruvchi “yoshlar diplomatiyasi” mexanizmini shakllantirishda ayricha ahamiyatga ega bo‘ldi.

To‘rtinchidan, safar O‘zbekistonning “yumshoq kuch” salohiyatini mustahkamladi, mamlakatimizning xalqaro nufuzi, madaniy diplomatiyasi va intellektual obro‘sini oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, “Germaniyada Turkiston adabiyoti” to‘plamining taqdimoti mamlakatimiz ilmiy merosining xalqaro ilmiy muomalaga kirib borishi uchun muhim qadam bo‘ldi.

Beshinchidan, ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini ochib berdi. Gamburg universiteti, Berlindagi maktablar va boshqa ta’lim muassasalari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar natijasida talabalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqotlar, akademik mobillik va qo‘shma ta’lim loyihalarini amalga oshirish uchun istiqbolli yo‘nalishlar belgilandi.

Oltinchidan, milliy o‘zlik va vatanparvarlik tarbiyasining amaliy namunasini yaratdi. Tanlov g‘oliblari uchun Germaniya safari jadidlar merosini kitoblar orqali o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, ularning g‘oyalarini xalqaro muhitda targ‘ib qilish imkoniyatini berdi. Bu esa yoshlarda milliy g‘urur, tarixiy xotira va Vatan taraqqiyoti uchun mas’uliyat tuyg‘usini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

Eng muhimi, bu loyiha O‘zbekiston-Germaniya gumanitar muloqotini yangi bosqichga olib chiqish uchun asos yaratdi. Tashrif doirasida o‘tkazilgan barcha uchrashuvlar, taqdimotlar va davra suhbatlari ikki mamlakat o‘rtasidagi gumanitar, ta’limiy va madaniy hamkorlikni institutsional darajada rivojlantirish uchun muhim poydevor vazifasini bajardi.

SO‘Z VA SAHNA XURSHIDI

Boshlanishi 1-sahifada.

ASLI NASLI

O‘zbek adabiyoti va inja san’ati tarixida shunday ahli qalamlar borki, ularni faqat “shoir” yoki “dramaturg” deb atash kamlik qiladi. Ular butun bir davrni, butun bir ma’naviy muhitni, butun bir avlod taqdirini yelkasida ko‘tarib o‘tgan insonlardir. Ana shunday buyuk siymolarning yetuk vakili, O‘zbekiston milliy musiqali drama teatri asoschilaridan biri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Shamsiddin Sharofiddinov 1892-yilning 20-iyunida Toshkentda, bog‘bon oilasida tavallud topgan. Avval madrasa va eski maktabda tahsil oladi.



Otasining vafotidan keyin, 1910-yilda o‘qishni tashlab, Andijonga borib, 1918-yilga qadar tijorat ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladi. Aynan o‘sha paytlarda dunyodan boxabar bo‘lish maqsadida Qrim, Tatariston va Ozarbayjonda nashr etiladigan gazeta va jurnallar bilan tanishib boradi. 1918-yilning yoz oylarida Toshkentga qaytib, o‘qituvchilar tayyorlash kursida o‘qiydi, so‘ngra “Behbudiy” va “Namuna” maktablarida o‘qituvchilik qiladi. Ammo u chinakam Xurshid bo‘lishi uchun uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi.

“HOYIB”DAN “XURSHID”GACHA yoxud TAXALLUSLAR TAQDIRI

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, zahmatkash olim Yusuf Tursunov uzoq yillar davomida Xurshid domlaning qo‘lyozmalarini o‘rganib, uning taxalluslari ijodiy va ruhiy kamolot bilan bevosita bog‘liqligi, har biri muayyan bir davrdagi ma’naviy holatini ifodalashini aniqlagan.

Shamsiddin Sharofiddinov hali juda yosh, taxminan 12-13 yoshlarida qalam tebratib, dastlabki she’riy mashqlari ostiga “Hoyib” deya yozishni odat qilgan. Bu so‘z arabiy lisonda “darvozabon, qo‘riqchi, pardali” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu nom yoshlikka xos nekbinlik va qat’iyat, murosasizlik natijasi bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin.

Shoirning qizi Rahima Sharofiddinovaning aytishicha, bo‘lajak Xurshid uylariga tez-tez kelib turadigan Kamiy domlaga mashqlaridan birini o‘qib beradi. O‘sha paytning mashhur shoiri bo‘lgan ustoz bu kamtar yigitchaning taxallusidan ajablanib, shunday degan: “Nega endi “Hoyib?” Hali yoshsiz, bo‘tam, yozganlaringiz xo‘p ma’qul. Yaratganga shukrona keltirib, boshqa taxallus tanlangiz...”

Bu tavsiyadan so‘ng yosh shoir “Shukriy” taxallusini qabul qiladi. Bu orada uning qo‘li mumtoz uslubda yozishga ancha kelishib qolgan, “Ushshoq”, “Chorgoh”, “Segoh” kabi kuylarga moslab yozgan g‘azallari xalq orasida keng tarqalgan edi.

Quyidagi misralar o‘sha mumtoz davrdan meros:

“Shukriy, bu g‘am-la o‘lsam, eting qabrima bino –
Kim, ta’na toshlari-la malomat minorasi”.

(“Daromadi ushshoq”)

E’tiborlisi, yigirma yoshidayoq, ya’ni, 1912-yilda o‘z she’rlarini jamlab, “Devoni Shohidiy”ga tartib bergan. Dastlabki ijodiy namunalari 1914-yilda “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston” gazetalari, “Tarjimon”, “Oyina” jurnallari va “Tuhfai Xislat” bayozida “Hoyib” taxallusi bilan e’lon qilingan.

Yusuf Tursunovning ta’kidlashicha, Xurshid domla bir paytning o‘zida g‘azallar uchun alohida, dramalar uchun boshqa, hajviy she’rlar uchun esa yana bir taxallusdan foydalangan. Ayniqsa, “Mushtum” jurnalida bosilgan hajviy she’rlarida “O‘jar”, “Tajang”, “Chayon” kabi taxalluslar qo‘llangan. Bu holat 1920–1930-yillar adabiy muhiti uchun odatiy hol bo‘lib, shoirlar turli uslub va janrlarda o‘zini erkinroq sinab ko‘rish maqsadida ijodiy nomlarini almashtirib turganlar.

Nihoyat, u barcha ijodiy yo‘nalishlarini birlashtiruvchi asosiy taxallusni tanladi: “Xurshid”. Bu “quyosh” degan ma’noni anglatadi.

“Toleying uyg‘ongusi, Xurshid, anga yo‘qdur gumon,
Kim, har qaro tun ortidan chiqqandek oftob”.

DRAMATIK BURILISH NUQTASI

Bu davrda jadidlik g‘oyalari yangi bosqichga ko‘tarilgan, xalq orasida kelajak va mustaqillikka umid ayni avjiga chiqa boshlagandi. Ma’lumki, maorifparvar jadidlar xalqni uyg‘otish, unga yangi fikr va yangi zamon nafasini olib kirish uchun eng ta’sirchan qurol sifatida gazeta, jurnallar va, albatta, teatr san’atini ishga solganlar.

Hali yigirmaga to‘lmagan Shamsiddin ma’rifatparvarlik ruhida “Eskilik va yangilik” degan dastlabki pyesasini yozgan bo‘lsa-da, unga haqiqiy drama maktabi zarur edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, avval Eski shahar xalq maorif bo‘limida xodim, keyin Mannon Uyg‘ur rahbarligidagi teatr truppasida suflyor, “Mushtum” jurnali tahririyatida texnik muharrir bo‘lgan Xurshid o‘zini butunlay yangi soha – dramaturgiyada sinab ko‘ra boshladi. Kutilgan natijalarga erishgach, Andijon viloyat teatri va Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida adabiy emakdosh sifatida faoliyat yuritdi.

Xurshid domla dramaturg sifatida yigirmaga yaqin katta va kichik hajmli pyesalar yaratgan. Ayniqa, Mannon Uyg‘ur truppasi bilan hamkorlik qilgan yillarda “Yomon o‘rtoq”, “Tuganmas boylik”, “Kichik askar”, “Buyuk askar” kabi sahna asarlarini yozgan. “Jadid, qadim” va “Juvonbozlik qurboni” pyesalari uning dramaturg sifatida muayyan tajriba hosil qilganidan darak beradi. Qolaversa, u kishi “Tilak” nomidagi o‘zbek truppasining rejissyori sifatida bir qator spektakllarni sahnalashtirgan.

“Xurshid domlaning bu asarlari o‘z davrida juda katta shuhrat qozongan va Alisher Navoiy ijodini xalq orasida ommalashtirishda muhim o‘rin tutgan dramalar bo‘lgan”, – deydi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi bosh xazinaboni Abdurasul Eshonboboyev. – *“Bir qiziq fakt bor: mashhur navoiyshunos olim Yoqubjon Is’hoqov (hozirda 92 yoshda) 50-yillarda Farg‘ona davlat pedagogika institutida tahsil olgani, o‘shanda talabalar “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” musiqali dramalarini ko‘rish uchun turnaqator navbat hosil qilgani, hatto bir necha hafta davomida bilet topish ham mushkul bo‘lganini juda yaxshi eslaydi... Mana sizga dramaturgning mahorati!”*

Qizig‘i shundaki, bu asarlar tomoshabinlar orasida shuhrat qozonganiga qaramay, adabiy jamoatchik tomonidan tanqidiy munosabat bilan kutib olingan. Shunga qaramasdan, mazkur asarlar yillar davomida sahnadan tushmagan.

Umrini jadidlar hayoti va ijodiy merosini tadqiq etishga bag‘ishlagan fidoyi olimlarimizdan biri – Sirojiddin Ahmadning bu boradagi fikrlariga e’tibor qaratsak: *“O‘zbek dramaturgiyasi o‘z vaqtida Ozarbayjon va Usmonli turk dramaturgiyasi bilan uyg‘unlikda shakllangan. Lekin bu uyg‘unlik Turkiston ijodkorlari ulardan ta’sirlangan yoki taqlid qilgan degan ma’noni anglatmaydi. Masalan, “Boy ila xizmatchi”ni olaylik, uning ildizi Ozarbayjon dramaturgiyasiga yaqin bo‘lsa ham, Hamza o‘z iste’dodi orqali maishiy dramani ijtimoiy dramaga aylantirgan. Shu nuqtayi nazardan, garchi Xurshid domlaning “Farhod va Shirin” yoki “Layli va Majnun” asarlari bevosita Navoiy dostonlaridan ilhomlangan bo‘lsa-da, pirovardida xalq hikoyalari, o‘lan va laparlari asosida shakllangan. Masalan, Amir Alisher “Farhod va Shirin”dagi bir epizodda Armanistonni tilga olsa, Xurshid domlada bu yer Mirzacho‘l sifatida talqin qilingan. Bu esa asarlarning milliy manbaga tayanganligini ko‘rsatadi.*

Shuningdek, mahalliy tomoshabinlar uchun asarda maqom, musiqa, xalq qo‘shiqlari va qahramonlarning armonlari, iztiroblari jamlangan bo‘lishi muhim edi. Mana shu me’yorlarga muvofiq, asar 1950-yillarda “Muqimiy” nomli musiqali drama teatrida sahnaga qo‘yilgan. Bu jarayonga To‘xtasin Jalilov kabi Yevropa va rus musiqasini yaxshi bilgan, milliy musiqa bilan uyg‘unlashtira olgan iste’dodli kompozitorlar katta hissa qo‘shgan. Masalan, “Tohir va Zuhra”dagi “Otmagay tong” ariyasi, aslida, rus musiqasi negizida yaratilgan bo‘lsa-da, hissiyot va ruhiyatga ijodiy yondashgan holda to‘liq o‘zbek musiqasiga aylantirilgan. Bu ustalik hind kompozitorlarining amaliy tajribasiga o‘xshashdir. Hammamiz yaxshi biladigan hind filmi “Sangam” (1964) dagi mashhur “Dost dost na raha” qo‘shig‘i ohang jihatdan sovet filmi “Volga-Volga” (1938)-dagi asosiy kuy motivlariga juda yaqin, lekin butunlay boshqacha ifodalangan.

Shu jihatlar Xurshid domlaning asarlarini ko‘tarib turgan asosiy xususiyatlar: maqom kuylari va milliy musiqa hissiyotlari. Cho‘lponning yaqin do‘sti va shogirdlaridan biri Abdulla Alaviy “Yer yuzi” jurnalida Xurshid domlaning asarlarini chuqur tahlil qilgan, qaysi nuqtada Navoiydan ilhom olinganini va nimani o‘zlashtirganini sistematik tarzda ochib bergan. Ushbu tahlillar orqali Xurshid domlaning dramalariga zarur bahoni berish mumkin”.

Bugun mazkur asarlar yosh tadqiqotchilar nazaridan ham chetda qolmagan, albatta. Jumladan, Gulruxsor Sherjonovaning “Xurshid dramalarida an’ana va yangilanish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida domlaning yuqorida qalamga olingan sahna asarlari qatorida “Savodsiz boy”, “Temirchining o‘g‘li”, “Orif va Ma’ruf”, “Qora xotin”, “Kichik askar” kabi pyesalari, “Turkiston” tarixiy dramasi, “Qalin”, “Oybonu”, Firdavsiyning “Shohnoma”si asosida yaratilgan “Siyovush qismati” musiqali dramalari, “Kulgu va ko‘z yoshlar” musiqali komediyalari ustida ilmiy izlanishlar olib borilyapti.

MAHORATLI MUTARJIM

Ma’lumki, Xurshid domla 1920-yillarda tarjimonlik bilan ham faol shug‘ullangan. U Ozarbayjon dramaturgi Uzeir Hojibekovning “Arshin mal alan” (1913) musiqali komediyasi va boshqa mashhur asarlarini, shuningdek, Uilyam Shekspirning “Otello” tragediyasini “Qora arab” nomi bilan, Fridrix Shillerning “Qaroqchilar” fojiali dramasini (ozarbayjon tili orqali) o‘zbekchaga o‘girgan.

O‘sha yillarda Mark Tvenning “Shahzoda va tilanchi”, noma’lum muallifning “Avvali hoy, oxiri voy” asarlarini ozarbayjon tilidan tarjima qilgani ham ma’lum.

1958-yilda Xurshidning Hofiz Sheroziydan qilgan tarjimalari kitob bo‘lib chiqqan. U ilmi badiiy, ilmi aruz, ilmi qofiyani mukammal bilgani uchun vaznni saqlab, sof o‘zbekcha ruhda tarjima qilgan.

“Bu kitobga Firdavsiy nomidagi xalqaro mukofot laureati Shoislom Shomuhamedov so‘z boshi yozgan, – deydi Abdurasul Eshonboboyev. – Xurshid domla mumtoz adabiyotimizning tengsiz bilimdoni edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Hofiz g‘azallarini asliyatga yaqin holda jaranglata olgan. Masalan, forsiyda bundog‘:

“Do‘sh az masjid so‘i mayxona omad piri mo,
Chist, yoroni tariqat, ba’d az in tadbiri mo.”

Endi o‘zbekchasi:

“Keldi masjiddan bu kech mayxona sori pirimiz,
Ne bo‘lur, yo‘ldoshlarim, bundan keyin tadbirimiz?”

Kechirasiz-u, hozirgi tarjimonlarimizning ishida ko‘pincha forscha jumlalar yetakchilik qiladi, fikrlash, ifoda tarzi o‘zbekcha emas.

Yoki Hofizning mashhur bayti:

“Yo Rab, in sham’i dilafro‘z zi koshonai kist?
Joni mo so‘xt, bipursed, ki jononai kist?”

O‘zbekchasi:

“Qaysi uyning sha’midir u, qaysi joyda xonasi,
O‘rtadi jonni, so‘rang, kimning erur jononasi?”

Hofiz she’riyatini o‘zbek tilida to‘liq jaranglatish uchun katta adabiy mahorat talab etiladi. Yana bir muhim jihatga diqqat qilish kerak: kitobda matnning bir tomoni forscha asl shaklda berilgan bo‘lib, u Abdulqodir Murodiy domlaning dastxatlari va xatlari asosida husnixat bilan ko‘chirilgan, yonida esa o‘zbekcha tarjimasi joylashtirilgan. Bu esa o‘sha davr adabiy-ilmiy an’anasi bilan uzviy bog‘liq holatdir.

OTA IZINI QIZ BOSDI

Xurshid domla 1949–1960-yillarda Til va adabiyot instituti qoshidagi Adabiyot muzeyida ilmiy xodim sifatida faoliyat olib borgan. Bu davrda u o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandalari Munis Xorazmiyning g‘azallari, Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’vizu-l-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devonini, Durbekning “Yusuf va Zulayho”sini nashrga tayyorlagan.

Taqdirni qarangki, domlaning qizi – Rahima Sharafiddinova 1962-yildan beri O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida faoliyat yuritib, otasining shaxsiy arxivini saqlash, tadqiq qilish va nashr etish bilan shug‘ullanmoqda. Yaqinda Otabek Jo‘raboyev bilan hamkorlikda “Ta’vizu-l-oshiqin” asarini qayta nashrga tayyorladi. Aytish mumkinki, bu tanqidiy matn asosida ishlangan mukammal nashr bo‘lgan.

Kamina qulingiz ushbu muxtasar matnning ba’zi joylarini Rahima ayaning bevosita guvohligi va yordamiga tayanib yozdi. Gohida mayin va hazin ovoz bilan padari buzrukvorining muborak qalamidan to‘kilgan satrlar ila “Chorgoh”, “Giryon”, “Bayot”, “Ushshoq”, “Segoh”, “Dugoh”, “Suvora” kabi kuylarga solarak aytilgan qo‘shiqlarni qo‘yib berishimni so‘radi. Zumda so‘ralgan ohangni topib beraman-u, bu haqir borlig‘imga xo‘p afsus yeyman... Sababi, qo‘shiqning ilk nag‘malaridanoq ayaning dardnok ko‘zlarida yiltir-yiltir yoshlar aylana boshlaydi. Kuy avjida yig‘i ham qiyomiga yetib qoladi. Qo‘sha-qo‘sha nevara, chevarali ayol beixtiyor otali damlarini xotirlay boshlaydi: “Har yili kuzda toklarni ko‘mardik. Otam rahmatli chilvir yasab, beliga bog‘lab olgancha navdalarni ehtiyotkorlik bilan ko‘tarardi. Radioda yangrayotgan qo‘shiqlarga jo‘r bo‘lib, ishga berilib ketganidan yon-atrofida qiy-chuvlashib yurganimizni sezmay qolardi. Otam hech qachon bizga qattiq gapirmasdi. Hatto ayvonda ijod qilib o‘tirganlarida bo‘yinlariga osilsak ham, qog‘ozlarini olib o‘ynasak ham indamay jilmayib qo‘yardi. Ayniqsa, qishda tancha ustiga Navoiy bobomizning “Xazoyin ul-maoniy” kitoblarini qo‘yib rosa qiroat bilan o‘qirdilar. Biz – bir uy bola-baqra to‘polon qilganimizda onam rahmatli otamga qarab: “Indamasdan ishlaysiz-a, hay desangiz bo‘lmaydimi?” deb kuyinardi. Otam esa mayin jilmayib: “Qo‘yaver, shularni ovozini eshitib tursam, menga ilhom keladi”, derdilar... O‘sha paytlarga qaytgim keladi. Sog‘inaman otamni...”

Radio: “Qo‘yma meni yig‘latib”. Sayyora Haqnazarova va Muhammadjon Karimovlar ijro etadi.

“Shukriy, yiqilmoq istasa garduni falak,
Ohim sharorasidan aylangiz anga sutun”.

XULOSA QILIB AYTGANDA...

Aziz mushtariy, yo‘q demasangiz, xulosani Sizga qoldirsak...

Shahriyor SHAVKAT tayyorladi.



ADIBLAR XIYOBONI

turkiy xalqlar madaniy birligining ramzidir!

Boshlanishi 1-sahifada.



Said Abdulhakim Shar’iy JUZJONIY, yuridik fanlar doktori, professor

O‘zbekiston bugun yangi yuksalish bosqichini boshdan kechirmoqda. Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan hayotiy islohotlar “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” shiori ostida amalga oshirilmoqda. Qisqa muddat ichida iqtisodiyot va sanoat tarmoqlari taraqqiyoti, ilm-fan rivoji hamda xalq farovonligini oshirish sohalarida qabul qilingan rejalar va hayotga tatbiq etilgan dasturlar qo‘shni davlatlar va xalqaro ommaviy axborot vositalarining yuksak e’tiroflariga sazovor bo‘lmoqda.

Men keng ko‘lamli madaniy yutuqlarimiz qatorida, bugun barchaning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib turgan Adiblar xiyoboni haqida fikr bildirmoqchiman. Xiyobon sayri chog‘i inson qalbini o‘zgacha bir hayajon va milliy g‘urur tuyg‘usi qamrab oladi. Hazrat Navoiyning savlat to‘kib turgan muhtasham haykali xiyobon hududida qad ko‘targan Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa yirik adib, shoir hamda yozuvchilarning siymolariga xuddi rizolik bilan boqib turgandek tuyuladi.

Men Navoiy, Bobur, Behbudiy, Muqimiy va Ogahiylar qatorida, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Zulfiyaxonim, Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, To‘lepbergan Qayipberganov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa ulug‘ so‘z san’atkorlarining muhtasham haykallarini ko‘rib, shunday tasavvur qilaman: ularning pok ruhlari ushbu majmua atrofida shod-u xurramlik bilan parvoz etib, bu maskanni bunyod etganlar haqqiga duoyi xayrlar qilmoqda va o‘z rizoliklarini bildirmoqda.

Bu qutlug‘ xiyobon milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari o‘tish jarayonlarining yorqin madaniy ko‘rinishi va teran ramzidir. Xiyobonning bir tomonida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uchun maxsus qurilgan yangi bino majmuaga alohida ko‘rk bag‘ishlab turibdi. Bu sarbaland, qo‘shqavat bino zamonaviy uslubda bunyod etilgan bo‘lib, unda ilmiy va adabiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Mazkur dargohda voqe bo‘lgan bir xalqaro konferensiyada chet ellik ko‘pgina olimlarning ham ushbu maskanga katta qiziqish va hayrat bilan boqqanlariga guvoh bo‘lganman. Binoda boy kutubxona, muzey hamda zarur tadbirlar uchun mo‘ljallangan katta va kichik zallar mavjud. Bu majmuani haqiqiy ma’noda ulkan madaniyat saroyi, deb atash mumkin. Xiyobon yaqinida ijodkorlar uchun bunyod etilmish zamonaviy uy-joylar esa adib va yozuvchilarga davlatning naqadar ehtiromli ekanidan dalolatdir.

Bu maskanda o‘zbek tili va adabiyoti darg‘alari ko‘p asrlik ayriliqdan so‘ng shu keng maydonda qayta jam bo‘lib, bir-birlari bilan mushoira va munozara qilayotgandek manzara jonlanadi.

Qaniydi, ushbu tarixiy xiyobonda butun turk dunyosining boshqa buyuk adib va shoirlari – Mavlono Fuzuliy, Nozim Hikmat yoki Nomiq Kamol, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov, shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Boborahim Mashrab, Mavlono Lutfiy, Husayn Boyqaro, Zebunnisobegim, Nodirabegim va Amir Umarxon kabi ajdodlarimizning ham haykallari qad ko‘tarsa! Shunda bu maskan barcha turkiy xalqlarning madaniy birligi va birodarligining haqiqiy ramziga aylangan bo‘lur edi. Barhaq, bu sharafga ham pillapoya vositasida erishilgay.

O‘zbekiston davlati rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilda Turkiy Davlatlar Kengashi (hozirgi Turkiy Davlatlar Tashkiloti)ga a’zo bo‘lishi orqali bu tuzilmani iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sobit iroda tufayli turkiy xalqlar tarixi va madaniyatining ko‘zgusi sifatida Islom sivilizatsiyasi markazining muhtasham binosini barpo etdi. Ushbu madaniy-tarixiy obida o‘zining mukammalligi, boy tarixiy hujjatlar xazinasi va ulardan keng foydalanish imkoniyatlari bilan bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning e’tiborini qozonmoqda.

Bu o‘rinda bir tarixiy haqiqatni ta’kidlab o‘tmoqchiman: davlat g‘amxo‘rligi va himoyasi bo‘lmas ekan, ilm-fan gullab-yashnashi uchun munosib sharoit paydo bo‘lmaydi. Fikrimga quyidagi tarixiy misollar dalil bo‘la oladi.

Agar XIII asrda Mag‘rib (Marokash) sultoni jahon miqyosida tarix falsafasi va jamiyatshunoslik ilmining asoschisi deb tan olingan Abdurahmon ibn Xaldunga barcha yashash va ijod sharoitlarini yaratib berib, mashhur “Qal’at ibn Salama” qal’asini yillar davomida uning mutlaq ixtiyoriga topshirmaganida edi, olim o‘zining eng muhim ilmiy durdonasi – “Al-Muqaddima” asarini hamda ko‘p jildlik “Al-Ibar...” tarixiy qomusini yozib tugatishga imkon va fursat topmagan bo‘lardi.

Agar Sulton Mahmud G‘aznaviy 400 nafar shoir va olim qatorida Firdavsiyni ham o‘z himoyasiga olmaganida edi, jahon adabiyoti durdonasi hisoblangan “Shohnoma”dek ulkan asar dunyoga kelmasdi.

Agar Temuriylar davlati, ayniqsa, Sulton Husayn Mirzoning yuksak e’tibori va homiyligi bo‘lmaganida, hazrat Alisher Navoiy o‘z ijodiy merosi bo‘lmish bebaho asarlarini yaratish uchun bunday xotirjamlik va farog‘at topa olmagan, Kamoliddin Behzod esa o‘zining mashhur miniatyura maktabiga asos sola olmagan bo‘lar edi.

Agar Xorazmiy va Farg‘oniylar “Baytul hikma”da faoliyat yuritib, xalifa Ma’mun Abbosiy himoyasida bo‘lmaganida, shuningdek, keyinchalik Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi daho allomalarimizga Xorazm Ma’mun akademiyasi va Xorazmshoh Ma’mun homiylik qilmaganida, ular ilm-fan cho‘qqilarini zabt eta olmagan bo‘lardi.

Bugun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakat taraqqiyoti va ilm-fan rivoji yo‘lida olib borayotgan odilona siyosatida ana shu tarixiy voqelik va an’analarning yorqin in’ikosini ko‘rish mumkin.

Stokgolm, Shvetsiya

KECHINMA



MUNOSIBLIK

Bir necha oydan so‘ng O‘zbekistonimiz hayotida yuz bergan ulkan tarixiy burilishning boshlanganiga o‘n yil to‘ladi. Bu sana, avvalo, Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatidagi faoliyati boshlangan davr bilan bog‘liq.

Tarixga guvoh bo‘lish – bag‘oyat qiziq va g‘alati hissiyotlar og‘ushiga soladigan mashg‘ulot. Bu fikrni har qanday tafakkur sohibiga aytsangiz, u albatta, tushunadi. Ayniqsa, hayot hodisalariga sinchkov nazar bilan qaraydigan ziyoli inson bu holatni yaxshi his etadi.

Qizig‘i shundaki, inson tug‘iladi, ulg‘ayadi, tiriklik va tirikchilik tashvishlari, orzu-maqsadlari bilan yashaydi. Ko‘z o‘ngimizda soniyalar daqiqaga, kunlar oylarga, oylar yillarga, yillar o‘n yilliklarga aylanib ketaveradi. Gohi bir lahza to‘xtab, kechayotgan vaqt haqida o‘ylashga fursat ham topolmaysan kishi. Tong otib, kun o‘tadi, kech kirib yana yangi kun boshlanadi. Shu tariqa inson umr oqimida suzib boradi.

Biroq hayotda shunday pallalar keladiki, inson o‘zidan o‘zi hisob so‘ray boshlaydi. Qaydan keldim? Qayerga ketyapman? Ortimda nima qoldi, oldimda nima kutib turibdi? Ana shunda g‘alati hissiyotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak haqidagi mulohazalar inson qalbini qamrab oladi.

Mutafakkir bobomiz hazrat Alisher Navoiy bejiz:

O‘z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen o‘zungdin istagil, –

deb yozmagan.

Oradan olti asr o‘tgan bo‘lsa-da, inson ruhiyatidagi bu ehtiyoj o‘zgargan emas. Bashariyat tafakkuri paydo bo‘lganidan beri mavjud bo‘lgan haqiqat bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Ayni shu tuyg‘ular bugun meni ham ona yurtim – O‘zbekistonning so‘nggi o‘n yillik tarixi haqida mulohaza yuritishga undamoqda. Bu nafaqat mamlakat hayotidagi o‘zgarishlar, balki ana shu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi va guvohi sifatida o‘z kechmishlarimni ham sarhisob qilish ehtiyojidir.

Bu hissiyotlar yaqinda ishtirok etganim – katta bir anjumandan keyin yana qayta uyg‘ondi. Aslida, uning ildizi 2017-yilga borib bog‘lanadi.

2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayoti solnomasiga muhim sana sifatida muhrlandi. Shu kuni O‘zbekiston Prezidenti madaniyat va san’at, adabiyot ahlini yig‘ib, keng qamrovli muloqot o‘tkazdi. U yerda mamlakat ma’naviyati, adabiyoti, san’ati va madaniyatining buguni hamda kelajagiga daxldor ko‘plab masalalar muhokama qilindi.

O‘sha yig‘ilishda aytmoqchi bo‘lgan fikrlarimni bayon etishga ulgurolmaganimdan keyin, bir necha kun o‘tib, “Prezidentimizga maktub” nomli maqolamni matbuotda e’lon qilgan edim. Unda shunday yozgan ekanman:

“So‘zlay olmay qolganimga qattiq afsuslandim. Bu kayfiyat sira tarqamayapti. Chunki Sizning O‘zbekistonimizning o‘tmishi, buguni va kelajak ma’naviyati, ma’rifati, adabiyoti va san’ati haqidagi kuyunchak, ehtirosli fikrlaringiz har birimizning go‘yo qalbimiz, fikrimizni ko‘rib, uqib turgandek, dard-u orzularimizni anglab, xayrixohlik, mehr bilan aytilgandek tuyuldi. Bu so‘zlar qalbimni bezovta qildi...”

Oradan to‘qqiz yil o‘tib, 2026-yilning 1-iyun kuni ham shunga o‘xshash bezovtalikni his etdim. Ammo bu safargi tuyg‘u boshqacharoq edi. Agar avvalgi bezovtalik umid va hayajondan tug‘ilgan bo‘lsa, bu gal unda xavotir ham bor edi. Yo‘q, mamlakat rahbarining madaniyat va san’at ahliga bo‘lgan mehri, e’tibori va g‘amxo‘rligi avvalgidan ziyoda bo‘lsa borki, sira kamaygani yo‘q. Aksincha, yanada kengroq, ko‘lamli, serhimmat va yuksak bosqichga ko‘tarilgan. Biroq ayrim ijod ahlining mamlakat va millat taqdiriga daxldor ulkan masalalar o‘rniga tor doiradagi shaxsiy manfaatlar va mayda tashvishlar bilan band bo‘lib qolgani kishini o‘ylantirmay qo‘ymaydi.

Bugun O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi nufuzi, mintaqa tinchligi va hamjihatligi yo‘lidagi tashabbuslari, iqtisodiy taraqqiyot borasidagi keng ko‘lamli islohotlari jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Mamlakat hayotida kechayotgan bu o‘zgarishlar barchamizning ko‘z o‘ngimizda yuz bermoqda. Shunday ekan, biz – ma’naviyat va nafosat ahli, “ruhiyat muhandislari” ham o‘z zimmamizdagi mas’uliyatga munosib darajada javob beryapmizmi? Bu savol har bir ijodkorni o‘ylantirishi kerak.

Uzoqqa bormay, birgina kinematografiya sohasini misol qilib olaylik. So‘nggi o‘n yil mobaynida o‘zbek milliy kino san’ati yuz yillik tarixida sira ko‘rilmagan e’tibor va g‘amxo‘rlikka sazovor bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti 2017-yil 29-dekabr, 2020-yil 20-noyabr va 2024-yil 16-may kunlari kinematografiya sohasi vakillari bilan alohida uchrashuvlar o‘tkazdi. O‘tgan bir asr davomida respublika rahbarlaridan hech biri kino ahli bilan bunday maxsus muloqotlar tashkil etmagan.

So‘nggi o‘n yil ichida Prezidentimizning sohani rivojlantirishga qaratilgan o‘nlab farmonlari, qarorlari va hukumat hujjatlari qabul qilindi. Ular natijasida milliy kino ishlab chiqarish tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Raqamlarga murojaat qilsak, 1924-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan qariyb 70 yil davomida 1500 ga yaqin kinoasar yaratilgan bo‘lsa, Mustaqillikning dastlabki 25 yilida 1192 ta kino mahsuli ishlab chiqarildi. Yangi O‘zbekistonning o‘n yillik davrida esa 616 ta film ekran yuzini ko‘rdi.

Badiiy filmlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari ham sezilarli o‘sdi. Sobiq Ittifoq davrida yiliga o‘rtacha 6 ta, Mustaqillikning dastlabki chorak asrida 15 ta film suratga olingan bo‘lsa, keyingi o‘n yilda bu ko‘rsatkich 30 taga yetdi. Eng muhimi, kino san’ati mazmunan ham yangilandi. Yangi O‘zbekiston ruhiga hamohang asarlarda xalqimizning uch ming yillik tarixi, milliy qahramonlarimiz, bugungi bunyodkorlik jarayonlari, yurt taraqqiyoti uchun mehnat qilayotgan zamondoshlarimiz obrazlari o‘z aksini topdi. Eng zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan bu asarlar xalqimizning kechagi va bugungi hayotini badiiy solnoma sifatida muhrlab bormoqda.

Tarix har bir davrga o‘z bahosini beradi. Biroq tarixning haqqoniy bahosi, avvalo, uning zamondoshlari tomonidan qay darajada anglangani bilan ham belgilanadi. Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonning o‘tgan o‘n yili nafaqat iqtisodiy va siyosiy islohotlar davri, balki milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy uyg‘onish va ijodiy mas’uliyatni qayta baholash davri sifatida ham tarix sahifalarida qolishi, shubhasiz.

Millatimizning qadimiy va boy merosi, Birinchi va Ikkinchi Renessans – Uyg‘onish davrlari, jahon ilm-fani va ma’naviy tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz hayoti, shuningdek, bugun yurtimizda qaror topayotgan Uchinchi Renessans g‘oyalari kinematografiyamiz uchun beqiyos ijodiy maydon ochib berdi. Shu bilan birga, bosqinlar va mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik kurashlari, jadid bobolarimiz fojiasi, mustabid tuzum qurbonlari, mafkuraviy tazyiqlarga uchragan ilm-fan, adabiyot va san’at namoyandalari, yurt va millat kamolini orzu qilgan fidoyi arboblar haqida to‘laqonli badiiy hamda hujjatli filmlar yaratish maqsadida “Tirik tarix” davlat kinodasturi g‘oyasi mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surildi. Bu tashabbus milliy va xalqaro miqyosda keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish, tarixiy xotirani kino tilida xalqqa yetkazish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi.

Bugun esa Vatan sharafi yo‘lida mehnat qilayotgan zamondoshlarimiz, mamlakatimiz hayotidagi muhim voqealar va ulkan o‘zgarishlar kun, oy va yillar solnomasidan ekranlarga ko‘chmoqda. Ular xalq qalbida iftixor va ehtiros uyg‘otadigan badiiy hamda badiiy-hujjatli filmlarga aylanmoqda. Shu tariqa zamonaviy kino vositasida bugungi davrimizning hujjatli va badiiy shahodatnomalari yaratilmoqda.

Qiziq bir mulohaza – Yangi O‘zbekiston davri boshlangunga qadar ijod ahliga “Zamon qahramonlarini toping, xalqqa ibrat bo‘ladigan obrazlar yarating”, degan chaqiriqlar yangrardi. Biroq ko‘pchilikning xayolida bir savol tug‘ilardi: o‘zi “zamon qahramoni” kim? Tadbirkor desangiz, kechagina uning nomi turli gumon va shubhalar bilan tilga olingan. Ilm-fan vakili desangiz, ularning iste’dodli vakillari iqtidori qadrlanmaganidan xorijga ketishga majbur bo‘lgan. O‘qituvchi yoki shifokor desangiz, tirikchilik izlab yurtma-yurt sarson bo‘lgan inson ko‘z oldingizga keladi. Ana shunday muhitda “zamon qahramoni” degan tushunchaning o‘zi mavhum va noaniq edi.

Ma’lum bo‘ldiki, haqiqiy qahramonni sun’iy yaratib bo‘lmas ekan. Zamon qahramonini hayotning o‘zi tarbiyalar, voqelikning o‘zi maydonga chiqarib qo‘yar ekan. Bugun Yangi O‘zbekiston bunyodkorligi maydonlarida yuzlab, balki minglab ana shunday insonlar yetishib chiqmoqda. Ular iqtisodiyotda, ilm-fanda, ta’limda, tibbiyotda, madaniyat va san’atda, ishlab chiqarishda, sportda va boshqa sohalarda yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan haqiqiy zamondosh qahramonlardir.

Bu jarayonda mamlakat Rahbarining o‘zi barchaga ibrat ko‘rsatmoqda. Vatanga sharaf keltirayotgan har bir muvaffaqiyat, har bir yutuq davlat siyosati darajasida e’tirof etilmoqda. Bu esa yangi qahramonlarning paydo bo‘lishiga, ular haqida asarlar yaratilishiga kuchli turtki bermoqda.

Ana shunday tarixiy imkoniyatlar, ijod qilish uchun keng sharoitlar, moddiy va ma’naviy ko‘maklar yaratilgan bir paytda, shukronalik va yuksak mas’uliyat o‘rniga mayda manfaatlar yoki shaxsiy istaklar bilan cheklanish, tabiiyki, har qanday kuzatuvchini o‘ylantirmay qo‘ymaydi. Bu holat kishini “attang” deyishga, muayyan ma’noda taassufga tushishga majbur etadi.

Shunday pallalarda zamonamizning ulug‘ mutafakkirlaridan Ibrohim G‘afurovning mansuralari yodimga tushadi:

“Men hech yerga bayroq tikmaganman.
Bayroq tikmay ham sudralib
yashayversa bo‘lar, albatta,
Hech kim aytmas, solmas yuzingga:
Nega bayroq tikmading deb cho‘qqilarga!
Ellikka kirganda chiqqim kelar
shu shamolgoh qoya ustiga,
Bayroq tikkim kelar,
Jo‘nlik ustidan qozongim
kelar g‘alaba...”

Haqiqatan ham, jo‘nlik, maydakashlik va yuzakilik ustidan g‘alaba qozonish har bir ziyoli va ijodkorni ijodiy bezovtalik va izlanishlarga undaydigan mayoq-maqsadi bo‘lmog‘i zarur.

Meni xavotirga solgan yana bir jihat shu bo‘ldiki, madaniyat va san’at sohasiga mas’ul insonlar sifatida biz ijod ahlini mamlakat rahbari ishtirokidagi yuksak anjumanlarda o‘zini munosib tutish, fikrni lo‘nda va mazmunli ifoda etish, soha uchun haqiqatan muhim bo‘lgan masalalarni ko‘tarish madaniyatiga yetarlicha tayyorlay olmabmiz. Vaholanki, mamlakat Prezidenti oldida so‘zlash imkoniyati har kuni ham nasib etavermaydi. Bunday minbarda faqat eng muhim, eng dolzarb va eng yuqori darajada hal qilinishi mumkin bo‘lgan masalalar haqida fikr bildirish lozim.

Axir, mamlakat rahbari qirq millionlik xalqning kundalik tashvishi, farovonligi, ta’lim-tarbiyasi, sog‘lig‘i, tinchligi va xavfsizligi uchun kechani kunga, kunni tunga ulab mehnat qilayotgan, mamlakat taraqqiyoti uchun tinimsiz harakatda bo‘lsa, shu bilan birga, madaniyat va san’at ahli uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratish rejalarini ham ilgari surayotgan bo‘lsa, biz, hech bo‘lmaganda, minnatdorlik va shukronalik tuyg‘ularimizni samimiy ifoda etishga qodir bo‘lishimiz kerak emasmi?!

Bir vaqtlar buyuk tariximiz haqida erkin gapirish, ulug‘ ajdodlarimizni xotirlash, din va ma’rifat haqida fikr bildirish, adolat va haqiqatni talab qilishning o‘zi katta jasorat sanalgan davrlar bo‘ldi. Bugun fikr erkinligi qaror topgan, til va dil qulflari yechilgan bir sharoitda mas’uliyatni unutib, har qanday fikrni o‘ylamay aytaverish to‘g‘rimikan?!

Mana shu savollar kishini xavotirga soladi.

To‘qqiz yil avval qalbimdagi shodlik va hayrat bilan madaniyat va san’at sohasidagi dardlarimni qog‘ozga tushirgan edim. Bugun esa mamlakatimizda ijod ahli uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni ko‘rib turib, ba’zan ularning qadriga yetishda oqsayotganimizdan iztirob chekaman.

Bu safargi anjumanda ijod ahli nomidan uzr so‘rab, tinch osmon, osoyishta hayot va ko‘ngil mehnati bilan shug‘ullanish baxti uchun samimiy minnatdorlik bildirishga jur’at topolmaganimdan afsusdaman. Shuning uchun bu satrlarni taassuf ila uzrxohlik sifatida qog‘ozga tushiryapman.

Mamlakatning rahbari har qanday sohada muvaffaqiyat qozongan vatandoshimizni chin dildan qadrlaydi. Kim bo‘lishidan qat’i nazar, Vatan sharafi uchun xizmat qilgan insonni e’zozlaydi. Buning yaqqol misolini yaqinda yana bir bor ko‘rdik.

Kann shahrida o‘tkazilgan XVII xalqaro inklyuziv filmlar festivalida o‘zbek yosh kinoijodkorlari Suhrob Qodirov va Dilshod Usmonov yaratgan “Qadam – Quyosh bolasi Yusuf” qisqa metrajli filmi Gran-pri mukofotiga sazovor bo‘ldi. Bu xabar yetib kelishi bilanoq davlat rahbari tomonidan ular “Kelajak bunyodkori” medali bilan

> **“Qaysi millatning adabiyoti boy, musiqasi yurakka yaqin, teatri hayotiy, kinosi ta’sirchan, san’ati jozibador bo‘lsa, o‘sha xalqning ovozi dunyoda baland eshitiladi.**
>
> **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOYEV**

taqdirlandi. Yosh ijodkorlarga yangi filmlar yaratish uchun bir milliard so‘mlik vaucher ajratildi. Shu bilan birga, ularni yurtga qaytish chog‘ida munosib kutib olish yuzasidan ham maxsus topshiriq berildi. Bu voqea ikki yosh kinoijodkor uchun ertakmonand hodisa bo‘lib tuyulgani tabiiy. Zero, bunday e’tibor va e’zozni hatto eng mehribon ota-ona ham har doim namoyon eta olmaydi.

Muqaddas kitoblarda inson zoti haqida chuqur ma’noli bir hikmat bor. Unga ko‘ra, Yaratgan o‘n sakkiz ming olamni, butun nabotot va mavjudot dunyosini bunyod etgan, ammo ularning barchasidan insonni aziz va mukarram qilib yaratgan. Shu bois, insonga tafakkur, til, hissiyot va ruhiy kechinmalar ne’mati ato etilgan, unga ulug‘ martaba berilgan. Insonning ana shu yuksak maqomga munosib yashashi uchun muqaddas kitoblar nozil qilindi, payg‘ambarlar yuborildi. Bu kitoblarda nafaqat hayot yo‘llari, balki insonlik sharafiga munosib bo‘lib yashash qoidalari ham bayon etildi. Keyinchalik ularni sharhlab, mazmun-mohiyatini anglatib beradigan olim-u ulamolar yetishib chiqdi, ulkan ilmiy va ma’rifiy meros yaratildi.

Aql va tafakkur taraqqiyoti yo‘lida ne-ne kashfiyotlar qilindi, insoniyatning ma’naviy va moddiy olami kengaydi. Demak, insonlik martabasi ham muttasil yuksalib bordi va bu jarayon hanuz davom etmoqda. Bashariyat tafakkuri yaratgan **komil inson, barkamol shaxs** haqidagi g‘oyalar barcha zamonlarning eng ulug‘ orzu-maslagi bo‘lib qolaveradi.

Sharq falsafasi talqinida inson Allohning nuridan bir zarra sifatida kelib, ma’naviy kamolot orqali yana o‘sha komillik manbayiga intiladi. Ana shunday yuksak fazilatlarni egallashga intilgan inson, tabiiyki, yer yuzida xalq taqdiri uchun mas’ul bo‘lgan oliy rahbar shaxsiga nisbatan ham munosiblik martabasiga ko‘tarilmog‘i lozim.

Zero, ta’kidlaganimizdek, Davlat rahbari bilan muloqot qilish, unga hamsuhbat bo‘lish, o‘z fikrini mamlakat taqdiriga daxldor minbarda bildirish ham har kimga nasib etavermaydigan sharaf va mas’uliyatdir. Buning ham o‘ziga xos ma’naviy rutbasi bor.

Taassufki, ba’zan to‘kinchilik, osoyishtalik, tinch, farovon hayot fuqaroni sergaklikdan mahrum etib qo‘yadi. Go‘yoki mamlakatda barcha vazifani faqat Prezidentning o‘zi bajarishi kerakdek tuyuladi. Holbuki, hayotning oddiy haqiqati shuki, har kim o‘z vazifasini vijdonan va professional darajada bajarsagina, umumiy muvaffaqiyat ta’minlanadi.

Afsuski, biz atrofimizda va butun global dunyoda kechayotgan jarayonlarni ko‘rib, kuzatib turgan holda, mustaqil fikr yuritish, mavjud ijtimoiy, ma’naviy hayot, vaziyatlarni har tomonlama tahlil qilish va xolis xulosa chiqarishga yetarlicha e’tibor qaratmayapmiz.

Axir, asosiy muammo shunda emasmi?! Ko‘p hollarda vakolatli idoralar doirasida, hatto undan ham quyiroq bo‘g‘inlarda hal etilishi mumkin bo‘lgan oddiy, ba’zan esa o‘ta jo‘n masalalar bilan ham “imkon topildi” degan bahonada to‘g‘ridan to‘g‘ri Yurt rahbariga yuzlanish holatlari uchrab turibdi. Yuksak maydonlarda mikrofon talashishgacha borib yetgan bu kabi holatlar, ochig‘ini aytganda, kishini o‘yga solmay qo‘ymaydi: uyat emasmi bu?!

Vaholanki, kimningdir konserti, kinosi, kitobining qalam haqi yoki madaniyat muassasasining kategoriyasi kabi oddiy tashkiliy masalalar ham tegishli idoralar darajasida, yo‘lakay hal etilib ketiladigan yumushlar-ku?! Shunday ekan, har bir masalani yuqoriga ko‘tarib chiqish, shoshma-shosharlik bilan mas’uliyatni boshqalar zimmasiga yuklash qanchalik to‘g‘ri?

O‘zbekda bir hikmat bor: jo‘ngina bir muammo tug‘ilib, behuda shov-shuv va asossiz mojaro kelib chiqsa, “shunga ham ota go‘ri qozixonami?!” deb nuqta qo‘yiladi. Shu kungi izdihom va muhokamalarda ishtirok etgan turli sohalardagi mutasaddi rahbarlar ham aynan shunday o‘yga borgan bo‘lsa, ajab emas, nazdimda.

Bu holatning tub ildizi esa ko‘p jihatdan bilim, tushunchalar torligi, san’at ahlining o‘z dunyoqarashi ustida fikr yuritmasligi va ijtimoiy-siyosiy malaka yetishmasligi, masalaga yuzaki yondashuv bilan bog‘liq, deb o‘ylayman. Chunki muammoning mohiyati chuqur anglanmasa, u albatta, noo‘rin talqin etiladi, ortiqcha shov-shuvga sabab bo‘ladi.

Achinarlisi shundaki, ko‘p holatlarda san’at sohasida saviya masalasi jiddiy e’tibor talab qiladigan nuqtaga aylanib bormoqda. Ayrim ko‘rinishlarda u bir tomonlama, mazmun va badiiy qiymati yetarlicha chuqur bo‘lmagan yo‘nalishga og‘ib qolayotgandek taassurot uyg‘otadi. Demak, bu haqda jiddiy mulohaza yuritish vaqti keldi.

Soha rahbarlari san’at ahli uchun ijodiy sharoit yaratish, ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, fikrlash madaniyati, nutq madaniyati va muloqot saviyasini ham shakllantirish haqida qayg‘urishlari lozim. Chunki iste’dodning o‘zi yetarli emas. Uni ma’naviy saviya, bilim va tafakkur boyligi to‘ldirib turishi kerak.

Prezident bilan muloqot qilish madaniyati haqidagi masala faqat san’at ahliga emas, balki butun jamiyatga taalluqlidir. Davlat rahbariga munosib bo‘lish, yurt taqdiri haqida mas’uliyat bilan fikr yuritish, yuksak ma’naviy va fuqarolik madaniyatini namoyon etish – bu har birimizning burchimizdir.

Yana kuni kecha qatorlarimizni tark etgan zakiy zamondoshimiz Ibrohim G‘afurovdan iqtibos:

“XX asrning dovruqli parapsixologlaridan biri... Jurji Gurjiyev o‘z asarlarida “Inson-mashina” degan g‘oyani ilgari suradi... Odam mashina bo‘lsa, uning hush, hissiyotlari-chi? – deymiz. Odam, axir, to‘q-son foiz hissiyotlar, kechinmalardan tashkil topadi-ku! Hissiyotlar odam mashinani to‘x-tovsiz harakatga soluvchi, uning barcha harakatlarini ma’noli-ma’nosiz qiluvchi kuch-qudratdir.

Mana shu his-kechinmalarning kuch-qudratiga qarab turib, Amir Nizomiddin Alisher Navoiy odamdan odamiylik qidiradi. Odam yaratilishi, borlig‘ining ma’nosini uning odamiyligida ko‘radi. Odamiylikka e’tiqod qiladi. Navoiy doim ta’kidlab keltiradigan uning go‘zal o‘gitlaridagi odamiylikni biz bugun mustaqil millat kabi bunyod bo‘layotib ma’naviylik deb anglamoqdamiz va bilmoq-damiz.

Odam avlodida kamdur odamlig‘ shevasi,
Odam ermas ulki mayli odamizod aylagay...

Boshqa o‘rinda bu fikrning yana bir qirrasini ochadi:

Hech ish o‘lmas ayr-u xoliq amridin,
Iltijo maxluqqa kelturma ko‘p...

Navoiy odamiylikning mazmunini elga xizmat qilishda, el og‘irini yengil qilishda, el yukini ko‘tarishda ko‘radi.

Biz bugun ma’naviyatli xalq, ma’naviyatli millat, ma’naviyatli inson va shaxs haqida orzu qilyapmiz. Taraqqiyotning omilini shunda ko‘ryapmiz”.

MARTABASI



Shuhrat RIZAYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

Ha, ulug‘larimiz ogoh etganidek, ma’naviyatdan ayro tushib, maxluqqa aylanib qolmaylik? Insonlik martabasiga yetishib, Yurt rahnamosiga munosib bo‘la bilish martabasiga ham ko‘tarilaylik. Shunda milliy birlik, milliy mushtaraklikka erishamiz. Shunda O‘zbekiston Prezidentining da’vatkor chaqirig‘i qalblarda mudom aks sado beraveradi: **“Bir bo‘lsak – xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!”**

Endi san’at va san’atshunosligimizning ayrim masalalari haqida. Mustaqillik maydonining kirish qismida joylashgan binolardan biri – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutidir. Qariyb bir asr muqaddam Samarqandda Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur ilmiy muassasa milliy madaniyat va san’atimizning barcha yo‘nalishlarini tadqiq etib kelayotgan eng nufuzli ilmiy markazlardan biri hisoblanadi.

Uning tarixida mamlakatimizning ko‘plab



mashhur olimlari faoliyat yuritgan: Po‘lat Zohidov, Isoq Rajabiy, Fayzulla Karomatli, Muhsin Qodirov, Roziya Karimova, Edvard Rtveladze, To‘xtasin G‘afurbekov, Rafael Toqtosh, Tamara Vizgo va boshqalar. Institut fondida eng qadimgi davrlardan tortib bugungi kungacha bo‘lgan madaniy jarayonlarga oid ulkan arxiv va ilmiy materiallar jamlangan. Qo‘lyozmalar, tadqiqotlar, noyob hujjatlar, foto, fono yozuvlar, san’at folklori namunalari bu yerda saqlanmoqda. Ayniqsa, milliy san’at tarixi, nazariyasi va tanqidchiligi sohalari aynan shu ilmiy maktab negizida shakllangan. Biroq bugun mazkur muassasaning ilmiy va ma’naviy salohiyatidan yetarli darajada foydalanilayotganini aytish qiyin.

Vaholanki, har qanday san’at asari, avvalo, tanqidiy tahlildan o‘tishi, ilmiy baholanishi, so‘ng tarixiy va nazariy jihatdan o‘rganilishi lozim.

Hozirgi kunda teatr, kino, tasviriy va amaliy san’at, xoreografiya, sirk, musiqa, maqom va boshqa sohalarda yaratilayotgan asarlarning katta qismi chuqur tahlilsiz, professional bahosiz ommaga taqdim etilmoqda. Bu esa ba’zan saviyasi past, havaskorlik darajasidagi asarlarning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Natijada nafaqat ommaviy madaniyat, balki olomonchilik ruhidagi mahsulotlar auditoriya didiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur holat umummilliy madaniyatimiz uchun jiddiy muammolardan biridir.

Yana bir muhim masala teatrlar faoliyati bilan bog‘liq. Bugun mamlakatimizda qirqdan ortiq davlat teatri faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning ijodiy tarkibida ko‘p yillik tajribaga ega aktyorlar, rejissyorlar, rassomlar va boshqa mutaxassislar mehnat qilmoqda. Bu, albatta, katta ma’naviy boylik. Biroq har qanday ijodiy muhitning taraqqiyoti uchun avlodlar almashinuvi ham muhim ahamiyatga ega. Agar bu jarayon tabiiy vorislik asosida kechsa, san’at yanada boyiydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, katta tajribali, faxriy ijodkorlarning mehnati va maqomini saqlagan holda, teatrlarda yoshlar ulushini sezilarli darajada oshirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, katta tajribaga ega ijodkorlarni shtatda saqlab yoki shartnomaviy asosda faoliyat yuritish imkoniyati bilan ta’minlab, 30-35 yoshgacha bo‘lgan iste’dodli yoshlarni ijodiy jamoalarning kamida yarmini tashkil etadigan darajaga olib chiqish mumkin. Chunki san’at ham tirik organizm kabidir. Unda tajriba va yangilanish, an’ana va izlanish, ustoz va shogird nafasi bir vaqtning o‘zida yashab turmasa, haqiqiy taraqqiyot yuz bermaydi.

Shu o‘rinda yaqin yarim asrlik madaniy hayotimizdan bir voqeani eslash o‘rinli bo‘ladi, menimcha. Balki u bugungi mulohazalarimiz uchun muayyan saboq va ogohlik vazifasini ham o‘tar.

O‘zbek teatr san’atining yirik namoyandalaridan biri, mashhur rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev ijodiy faoliyati davomida ikki bor katta teatrlardan ixtiyoriy ravishda ketgan edi. Avval o‘tgan asrning saksoninchi yillari o‘rtalarida Hamza (*Milliy akademik drama)* teatridan, keyin esa 2000-yillar boshlarida Abror Hidoyatov nomidagi *(O‘zbek davlat drama)* teatridan butunlay voz kechdi. E’tiborlisi shundaki, u yana boshqa yirik teatrga emas, balki nisbatan kichik va eksperimental yo‘nalishdagi “Diydor” teatr-studiyasiga rahbarlik qilishni ma’qul ko‘rdi. U yerda iste’dodli yoshlarni yig‘di, saraladi, kashf etdi, turli ijodiy tajribalarni amalga oshirdi va o‘zi orzu qilgan yangi teatr avlodini tarbiyalashga bel bog‘ladi.

U doimo bir fikrni takrorlar edi: teatrning qoni hamisha yangilanib turishi kerak. Teatr, avvalo, yoshlarning maydoni bo‘lishi lozim. Shu g‘oya yo‘lida u katta sahnalarning shon-shavkatidan kechib, mo‘jaz teatr-studiya muhitini tanladi. Darvishona hayot kechirdi, ammo ijodiy erkinlikdan voz kechmadi.

Jahon teatr amaliyotida ham bunga o‘xshash qiziq tajribalar ko‘p uchraydi. Masalan, Londonda qayta tiklangan mashhur “Globus” teatrini olaylik. U Shekspir xotirasiga ehtirom sifatida qurilgan va tarixiy qiyofasi saqlangan holda faoliyat yuritadi. Bu teatrda ma’muriyat va boshqaruv tizimi bor. Ammo doimiy ijodiy truppa yo‘q. Aktyorlar va ijodiy jamoa har yili maxsus tanlov, kuzatuv va saralash asosida shakllantiriladi. Ular bilan bir yillik shartnoma tuziladi. Shu muddat ichida ijodkor o‘z mahorati, professional darajasi va yangi badiiy izlanishlari bilan o‘zini namoyon eta olishi shart.

Albatta, bu tajribani to‘liq holda milliy teatr muhitiga ko‘chirish qiyin. Ammo, nega qirqta davlat teatridan hech bo‘lmaganda bir-ikkitasini eksperimental, jadidona ijodiy laboratoriya sifatida qayta tashkil etish mumkin emas? Axir, o‘z milliy tariximizda ham buning ibratli namunasi bor-ku. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari sahnalashtirilgan dastlabki davrlarni eslaylik. Yoki Hamza Hakimzoda Niyoziy tashkil etgan teatr truppalarining shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, xalqqa ma’rifat ulashgan fidokorona faoliyatini yodga olaylik.

Bugun Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi amalga oshirayotgan “Ma’naviyat karvonlari” loyihasi ham aslida ana shu tarixiy tajribaning zamonaviy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyot va san’at vositasida mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarini, davlatimiz rahbari olib borayotgan ichki va tashqi siyosatning mazmun-mohiyatini, yurtimizda ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlarni xalq qalbi va tafakkuriga yetkazishning hali ochilmagan imkoniyatlari juda ko‘p. Buning uchun esa ijodiy muhitda professional bilim, doimiy izlanish, tajriba qilishga tayyorlik, qoliplashgan tasavvurlardan chiqish, turli byurokratik to‘siqlardan qo‘rqmaslik, eng muhimi, jur’at va tashabbuskorlik ruhi kuchli bo‘lishi kerak.

Afsuski, bugun “professionallik” degan tushunchaning o‘zi ma’lum ma’noda siyqalanib bormoqda. Har sohada, har bir ijodiy tashabbusda haqiqiy mahorat o‘rniga havaskorlikning turli ko‘rinishlari urchiyotganini kuzatish mumkin. Eng xavotirli jihati shundaki, ba’zan bu muammolarni hal qilish vazifasini ham davlat yoki hukumat rahbarlarining zimmasiga yuklab qo‘yishga moyillik paydo bo‘lmoqda. Bu esa, aslida, mas’uliyatdan qochishning bir ko‘rinishidir.

Vaholanki, Mamlakat rahbari madaniyat, san’at va adabiyot sohalarining rivoji uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Bu bir yoki ikki marta emas, balki tizimli va izchil ravishda amalga oshirilmoqda. San’at va madaniyat ahli bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazilmoqda, yangi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda, hatto zarur bo‘lsa, xorijning ilg‘or tajribasi va mutaxassislarini jalb etish taklif qilinmoqda.

Bundan ortiq yana qanday imkoniyat bo‘lishi mumkin? Qalbida Vatan muhabbati va xalq taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usi bor har bir ijodkor bu haqda jiddiy mulohaza qilishi lozim. Zero, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyoda o‘z milliy qiyofamizni, ma’naviy irodamizni va madaniy nufuzimizni saqlab qolish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Aks holda, jahon xaritasida rangsiz va ta’sirsiz nuqtaga aylanib qolish xavfi bor.

Bu fikrlarni yozar ekanman, yana bir savol xayolimni band etadi. Axir, adabiyot va san’atning asosiy harakatlantiruvchi kuchi nima o‘zi? Farovon hayotmi? To‘kinchilikmi? Hordiq va ko‘ngilocharlikmi? Albatta, inson faqat mehnat va tashvish bilan yashay olmaydi. Unga quvonch ham, huzur ham, dam olish ham kerak. Biroq haqiqiy ijodning manbayi bular emas. San’at ahlining qalbini harakatga keltiradigan asosiy kuch bu – dard, dardmandlikdir. Boborahim Mashrab aytmoqchi:

“Dilda darding bo‘lmasa,
Sardaftarimni kavlama”.

Bugungi o‘zbek “ahli nafosati” qalbida ana shu dard qay darajada yashayapti? Nahotki, moddiy ehtiyojlarning qondirilishi, turmush farovonligining ortishi ijodkor qalbidagi dard tuyg‘usiga qulf solsa? Axir, qo‘shiqdagi nolakor ohang, shoir qalbidagi iztirob, dramaturgning izlanishi, rejissyorning kechinmalari, aktyorning sahnadagi ruhiy titrog‘i qayerdan paydo bo‘ladi? Ularning barchasi darddan tug‘iladi. Lekin bu yerda gap ochlik yoki muhtojlikdan tug‘iladigan dard haqida emas.

Menimcha, haqiqiy ijodiy dardning manbayi boshqa.

U – Vatan taqdiri uchun qayg‘urish;

U – xalqning ma’naviy kamolini o‘ylash;

U – inson qadri, millat sha’ni va yurt kelajagi uchun yurakning bezovta urishidir.

Moddiy farovonlik tanga orom berishi mumkin. Ammo, ruhiy quvvatni, ma’naviy qanotni, ijodiy parvozni ta’minlaydigan kuch boshqa manbada yashaydi. Insonni inson qilib turgan ham, ijodkorni ijodkor qilib turgan ham, avvalo, uning ruhiy olamidir. Zero, tan va vujudga hayot bag‘ishlaydigan qudrat qanchalik muhim bo‘lsa, millat va jamiyat hayotini yuksaltirib turadigan ma’naviy qudrat ham shunchalik beqiyos ahamiyatga egadir.

Asrlarning mayog‘ini ko‘ra bilgan ulug‘ o‘zbek faylasuf shoiri G‘afur G‘ulomning bashorat yo‘sinidagi da’vatkor satrlari maqolamizga so‘nggi nuqta bo‘ladi, shoyad:

“Saflar oldida bo‘l, mard bo‘l, botir bo‘l,
Do‘stlarga hamohang jo‘ra bo‘l, jo‘r bo‘l.
Ona yurt hurmati, Vatan hurmati,
Xalqimning hurmati, g‘olib bo‘l, zo‘r bo‘l!”



Inson idroki Yer shariga o‘xshaydi: uning yarmi charog‘on, yarmi esa zulmat qo‘ynida.

Maksimilian ROBESPER

MUNOSABAT



USTOZLARGA UNSIYAT



Shahnozaxon NAZAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori

Men o‘tayotgan kunlarimga nisbatan juda soddaman yoki bolalikning tabiati hech qo‘yib yubormagan. Hozir kim ham ustozlarga unsiyat, ularga ixlos, ato etilgan ma’naviy vorislik haqida Muso Xudo qarshisida turgandek turib bosh qotiradi, deysiz.

Ustozim Omonilla Madayev qazo qilishlaridan bir necha kun oldin shifoxonadan qo‘ng‘iroq qildilar. Ovozlarida dard bor edi. Tashvishlarimni yengolmadim, borolmadim, bormadim. Armon yurakning ustiga bosilgan tamg‘adek iz qoldirdi. Menda hali ustozlar bor edi. Bunday armon yana meni dog‘da qoldirmasin deb, uni bo‘ridek ang‘ib poylab yurdim.

Ustozim Naim Karimov omonatni topshirishlaridan ikki-uch kun oldin 4-5 marotaba xonalariga kirib chiqdim. Ular hozirgi “Jadid” gazetasi tahririyati faoliyat yuritayotgan muzey qanotida o‘tirar edilar. Ustozning muharrirligida chiqqan oxirgi to‘plam – “Jadid kulliyoti” nashr variantiga imzo qo‘ydirdim. Bu ishlarni hech qachon to‘xtatib qo‘ymasligimni tayinladilar. Keyin gazeta olib chiqdim. Yana nimadir. Domla: “Hamma ketdi, men qolib ketdim. Endi qo‘limdan bir ish kelmasa, nima qilaman bunday yuraverib”, dedilar. “Domla, tirik yursangiz, shuning o‘zi yetadi bizga”, dedim. Qo‘llaridan tutdim. G‘alati ohangda: “Hech kim bilan bunday ko‘rishmagandim”, dedilar. Atrofda mendan boshqalar ham bor, atrof tinimsiz guvullab turgan edi.

Ustozim Ibrohim G‘afurov meni bir oydan beri kutayotgan edilar. Yangi vazifa va og‘ir majburiyatlar ostida uzoq yillar davomida ochilmagan xonalarni ochishga, qo‘lyozma, toshbosma, arxiv hujjatlarini birma-bir ko‘zdan kechirishga to‘g‘ri keldi va bu asrlik g‘uborlar nafas yo‘llarimga o‘rnashib olib, ancha qiynadi. Ustozning aziz farzandlari bilan ularni bunday g‘uborlardan ehtiyot qilar, betob bo‘lsak, yonlariga bormas edik. O‘sha tongda bir og‘riq tomog‘imga qadalib, qirralari botib, ishlagani qo‘ymadi. Ustozga qo‘ng‘iroq qilib, tushlik vaqtida borishimni aytdim. Xudoyimning marhamati meni diydor tomon haydab bordi. Ustozning katta qizlari – Surayyo opam kutib oldilar. Pochcham ham shu yerda ekanlar. Ustoz ayvonda o‘z o‘rinlarida o‘tirgan ekanlar. Zarracha g‘ubori yo‘q oppoq kiyimlarda, oppoq sochli, oppoq qoshli, zarracha og‘riq yoki bezovtalik alomatlari sezilmayotgan ko‘zlari quvonchga to‘la nuroniy. “Oppoq kiyinib olibsizmi?” dedim kulib. Opam “Adam kelishingizga oppoq kiyinib, yasanib chiqdilar”, dedilar menga sherik bo‘lib. O‘n ikkilarda borgan bo‘lsam, ikki-ikki yarim soat suhbatlashdik. Suhbat mavzusi Adabiyot muzeyining tarixi, hozirgi holati, ko‘chishning og‘riqli tashvishlari-yu u yerdagi boyliklarni saqlab qolish masalasi bo‘ldi. Ustoz ko‘proq so‘zlarimizga quloq solib o‘tirdilar. Orom, sakina va tashvish to‘la dunyodan kelgan bir shogirdning xavotirlariga to‘la edi xona. Opam dasturxonga do‘lma tortdilar. Ustoz qayta-qayta, “alhamdulillah”, “Xudoga shukr”, deya har luqmaning shukrini keltirib yedilar. Qovun qo‘yildi, Ustoz bir karchini qo‘limga tutqazdilar. Qizlaridan gilos so‘radilar. Kecha olib kelingan giloslar biroz burishib, yanada maza kirgan, biroz taxir, ammo juda xush yoqadigan ta’mga ega edi. Keyin ketishga ruxsat so‘radim. Ustoz butun hayotimni to‘ldiradigan duo qildilar. Bu duo ichimda qoldi va Yaratganning izni bilan yaproq yozib unib chiqajak. Ketdim. 5-10 daqiqa ichida hech qanday jismoniy og‘riqlarsiz omonatni topshiribdilar.

Ertasiga uylariga bordim. Ustozning jon farzandi – Zulayho opam “Adamni qayerga olib ketib qoldingiz”, deb bag‘irlariga bosib, kutib oldilar... “Oxirgi gaplashgan odami siz ekansiz – adam nima dedilar?” Nima ham derdilar, sizlarni juda yaxshi ko‘rar edilar. Qayerga ham olib ketar edim, men o‘zim hali u manzil-maqomlarga yetmadim. Ibrohim, Iso, Ayyub alayhissalom hayotlaridan o‘z hayotlariga ibrat va qanoat topar edilar. Navoiy, Homer, Dante, Gyote, Xeminguey, Tolstoy, Betxoven, Dostoyevskiylar bilan bu dunyodayoq davradosh edilar. Muhtaram ota-onasi, tog‘alari, opalariga sog‘inch bilan oshiqqan edilar...

Ustoz hayotligida asarlarining bir qismini akademik yo‘sinda e’lon qilishga erishdik. Bu mukammal nashr ham ilmiy, ham adabiy, ham tarjima asarlarni qamrab olishi kerak bo‘lgan noyob hodisa edi. Mazkur nashr 25 jildga mo‘ljallangan va har bir jildning mundarijasini Ustozning o‘zi bilan birga ishlab chiqqandik. Ushbu nashrni tayyorlashda shu vaqtga qadar chop etilgan va muallifning o‘zi tomonidan qayta ko‘rilib, tahrirdan o‘tkazilgan barcha kitoblari, tarjimalarining ilk nashrlari asos qilib olindi.

Dastlabki sakkiz jild – “Asarlar” – “Adabiyot dunyosi” deya atalayotgan umumiy nom ostida birlashgan bo‘lib, unga Ustozning 1960-yillardan to bugunga qadar e’lon qilingan barcha mualliflik asarlari, tadqiqotlari, shuningdek, adabiy suhbatlar ham kiritildi va chop etildi.

9-25-jildlar tarjima tanqidiga oid risola va saralangan tarjima asarlarni o‘zi ichiga olib, “Tarjima dunyosi” degan umumiy nom ostida chop etilishi rejalashtirilgan edi. Ammo bu ishni hanuzgacha amalga oshira olmadik. Ehtimol, 26-jild kundaliklar va xatlardan iborat bo‘lar. Ammo u omonat kundaliklar, xatlar, yangi kitob uchun jamlangan papkalar, Dostoyevskiydan qilinayotgan, biroq oxiriga yetmagan yangi tarjimalar, umuman, ulkan fikr egasi, yirik adabiyotshunos olim, yirik tarjimon, yozuvchi, shoir, jurnalist va jamoat arbobi Ibrohim G‘afurovning merosi, shaxsiy arxivining hisobi qancha? Ustoz va opalarim hamrohligida kitoblarning bir qismini ko‘rganman, u bir qism ham – dunyoning kitobi. Ustoz Teshikqopqadagi ota hovlilariga olib borib, “Ustozingizning talabalikdagi g‘arib hayoti qayerlarda kechganini ko‘ring”, deya, u yerdagi yashagan joylari, kitoblarini ham ko‘rsatmoqchi edilar. Ularning salmog‘i qancha ekan? Bu merosni o‘rganish, taqdim etishning eng munosib yo‘llari o‘z vaqti bilan ishlab chiqiladi. Undan oldin qad kerib turgan Adabiyot muzeyi bu arxivni qabul qilsa, tasniflasa, hisobini olsa, asrash, tadqiq etish hamda nashr etish ishlari tizimli amalga oshirilar edi. Zero, muzeyning “O‘zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi” fondining bosh vazifasi ham shu. Biz ham shogirdlik burchini ado etar edik. Ustoz xuddi Omonilla Madayev, Naim Karimov kabi bu manzillarga mehr qo‘ygan, bizni ham bu makonlarga muhabbatli qilib tarbiyalagan edilar.

OLAM OLIMI



KO‘Z ILG‘AMAS KASHFIYOT

“Elektronlar fotosuratchisi” nomi bilan mashhur Ann L’Yuilye zamonaviy fizikaning eng nufuzli olimlaridan biri hisoblanadi. U elektronlar harakatini kuzatishga imkon bergan ilmiy tadqiqotlari orqali dunyo ilm-fanida katta burilish yasadi va ushbu yutug‘i uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

HAYOT YO‘LI

Fizikada shunday hodisalar borki, ular inson tasavvuridan ham tez kechadi. Atom ichidagi elektronlar harakati ana shunday sirli jarayon. Fransuz va shved fizigi Ann L’Yuilye butun ilmiy faoliyatini aynan shu ko‘rinmas olamni ko‘rishga bag‘ishladi.

U 1958-yil 16-avgustda Parij shahrida tug‘ildi. Ilk ilmiy qadamlarini matematika pillapoyalaridan boshladi. Fontene-o-Roz shahridagi Oliy Normal maktabida tahsil olar ekan, aniq fanlarga mehri uni fizika sari yetakladi.

1986-yilda CEA Saclay ilmiy markazi va Parij VI universitetida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning ilmiy dunyoqarashi shakllanishida Nobel mukofoti sohibi Klod Koen-Tannuji muhim o‘rin tutdi. Fransiya, Shvetsiya va AQSHdagi ilmiy markazlarda to‘plangan tajriba uning keyingi yirik kashfiyotlariga zamin yaratdi.

1994-yilda Shvetsiyaga ko‘chib o‘tdi va Lund universitetida faoliyatini davom ettirdi. Oradan ko‘p o‘tmay universitet professoriga aylandi va attosekund fizikasi bo‘yicha dunyodagi yetakchi olimlar safidan joy oldi.

KASHFIYOT MAZMUNI

Bir soniyani milliardga, keyin yana milliardga bo‘lsangiz, hosil bo‘lgan ulush attosekund deb ataladi. Elektronlar aynan shunday qisqa vaqt ichida harakat qiladi. Uzoq yillar davomida olimlar bu harakatni faqat nazariyada tasavvur qilar, ammo uni kuzatishning iloji yo‘q deb hisoblashardi. Ann L’Yuilye esa bu tasavvurni o‘zgartirdi. 1987-yilda u yuqori intensivlikdagi lazer nurlari ta’sirida inert gazlarda yuqori tartibli garmonikalar hosil bo‘lishini kuzatgan ilmiy guruh tarkibida ishladi. Bu natija keyinchalik attosekundli impulslarni yaratish sari tashlangan hal qiluvchi qadam bo‘lib chiqdi. L’Yuilye nafaqat ushbu hodisaning nazariy izohini berdi, balki uning imkoniyatlarini ham birinchi bo‘lib anglagan olimlardan biri bo‘ldi. 1992-yilda Yevropadagi ilk titan–sapfir femtosekundli lazer tizimlaridan birini yaratish ishlarida ishtirok etdi.

2003-yilga kelib uning ilmiy jamoasi 170 attosekundlik lazer impulsini hosil qilishga erishdi. Bu natija insonga elektronlarning harakatini go‘yoki o‘ta tezkor kamera orqali kuzatish imkonini berdi. Bugun ushbu texnologiyalar kvant fizikasi, kimyo, materialshunoslik va yangi avlod elektronikasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XALQARO E’TIROF

2023-yilda Ann L’Yuilye Ferens Kraus va Pyer Agostini bilan birgalikda moddadagi elektronlar dinamikasini tadqiq qilish imkonini bergan attosekundli yorug‘lik impulslarini yaratish sohasidagi ulkan hissasi uchun fizika bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Uning ilmiy xizmatlari Volf mukofoti, L'Oréal–UNESCOning “Ilm-fandagi ayollar uchun” mukofoti, Maks Born mukofoti, BBVA Foundation Frontiers of Knowledge mukofoti kabi ko‘plab nufuzli e’tiroflarga loyiq ko‘rilgan.

Attosekundlar olamini ochgan bu olima zamonaviy fizikaning eng yorqin namoyandalaridan biri sifatida tarixdan munosib o‘rin egalladi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

Boshlanishi 1-sahifada.

Bunda asosan, biz mutaxassislar, ya’ni Montessori gidlari kichkintoylarning nafaqat aqliy, balki jismoniy, hissiy va ijtimoiy tomonlama teng rivojlanishiga bor e’tiborimizni qaratamiz. Komil natijaga erishish uchun bizda bola uchun tayyorlangan muhit va yetuk mutaxassis bo‘lishi zarur. Oldindan tayyorlangan o‘qituvchi go‘dakning rivojlanish davrlari, unga qachon nima kerakligi, qanday ayricha qiziqishlari borligini kuzatishi va ularni tahlil qilib, har bir bolaga individual reja tuzishi shart. Biz aytayotgan muhit beshta hududdan iborat. Sinfxonamiz bolalarning ma’nan va jismonan to‘kis rivojlanishiga mos bo‘lishi shart. Ya’ni, mebellar balandligi bolalarning ko‘z darajasi bo‘yicha o‘rnatilib, biror ashyo ular qo‘li yetmaydigan, topolmaydigan, ololmaydigan joyda bo‘lmaydi. Birinchisi, amaliy hayot hududi deyiladi. U yerda kichkintoy hayotiy mashg‘ulotlar – qoshiqni ushlashdan tortib, stolni artishgacha, hech kimning yordamisiz ovqatlanishi, kiyinishi, hattoki ust-boshini o‘zi yuvib dazmollashi, qorni ochgan paytda salat tayyorlab yeyishi mumkin.

– Ko‘pchilikda Montessori bolalarga faqat uy ishlarini qilishni o‘rgatadi, degan tasavvur bor ekan...

– Bu noto‘g‘ri qarash. Bola o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatganda mustaqillik ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Qolaversa, diqqatini ko‘proq vaqt jamlashni o‘rganadi. Ayniqsa, o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadi. Ya’ni, hammasini men o‘zim uddalay olaman, hech kimga yalinib o‘tirishim shart emas, xohlagan joyimga bora olaman, degan fikr murg‘akning kelajakda o‘ziga ishongan va mustaqil fikrlaydigan shaxs bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Bizda olma kesish, bir chiziqdan chiqmasdan yurish kabi ko‘plab mashg‘ulotlar bor. Bolalar hovli va pollarni supurishadi, gullarga suv quyadi, ovqatlanish paytida ham dasturxon yozishdan tortib, idishlarni yuvishgacha bo‘lgan barcha ishlarni o‘zlari qilishadi. Bir qarashda bular oddiy uy yumushlariga o‘xshab ko‘rinishi mumkin. Ammo meva kesayotganda bola pichoqni qanday ushlashni, to‘liq bosganda qo‘li, bilagi, barmoqlarini qanday ishlatish kerakligi, qo‘l va ko‘z koordinatsiyasi, kichik va katta motorikasini rivojlantiradi. Bola hamma amaliy hayot materiallari bilan takroriy shug‘ullanishi zarur. Bu miyada yangi neyronlar hosil bo‘lishi va bir-biri bilan ulanishida juda muhim. Montessorida biz bolalarni sabr-toqatga, o‘z-o‘zini nazorat qilishga, bir ishni oxirigacha yetkazishga, takror orqali diqqatni jamlash va mahoratga o‘rgatamiz.

Sensorikada esa beshta sezgi organini nozik charxlaymiz. Bu degani – ko‘zda vizual, quloqda ovoz, tilda ta’m bilan his qilish, burunda olfaktor, qo‘l bilan his qilish sezgilarni faollashtiramiz. To‘g‘ri, bola bularni avvaldan biladi. Lekin biz sensorikada shu mavhum tushunchalarni nomlashga o‘rgatamiz.

Madaniyat hududida esa bola o‘zi yashab turgan joyi, davriga mos, geografiya, san’at, astronomiya, biologiya, zoologiya kabi bilimlarni egallaydi. Hayvon turlari: umurtqalilar, sudralib yuruvchi, sut emizuvchi, suvda va quruqlikda yashovchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganamiz. Botanikada tabiatni, barglar turi, gullarning nomini o‘rganib, amaliy mashg‘ulotda gerbariylar qilamiz ulardan. Tasviriy san’at namunalari, natyurmort, miniatyura janrlari va buyuk rassomlarni o‘rganamiz. Kamoliddin Behzod, Pikasso kim bo‘lgani haqida bolalar bilan suhbatlashamiz.

MONTESSORI FAQAT ZAMONAVIY MAKTABMI?

– Siz aytayotgan ishlarni bajarishga kichik yoshdagi bolalarning toqati yetadimi?

– Bolalarimiz hatto, matematika o‘qib ham charchab qoldik, deyishmaydi. Chunki matematika darslarida mavhum narsalar materiallashtirib boriladi. Misol uchun, birlik, o‘nlik, yuzlik va minglikni ifodalaydigan detallar bor. Kichkintoylar uni bemalol ushlab va ko‘tarib ko‘roladi. Hammasi ilmiy asoslangan. Bolalar materiallarimiz yordamida to‘rt yo to‘rt yarim yoshda qo‘shish, ayirish, ko‘paytirishni bemalol o‘rgana oladi.

Yana til maydoni mavjud. Unda kundalik hayotimizda ishlatiladigan so‘zlardan tortib, murakkab so‘zlarni o‘qish va ergashgan qo‘shma gaplarni morfologik bilib olishi mumkin.

– Demak, Montessori sinfida farzandlarimiz bog‘cha yoshidayoq maktabda o‘rgatiladigan bilimlarni ham egallashi mumkin ekan-da?

– Bu metod shunaqaki, bola ikki yarim yoshda maktabga kelsa, uch-to‘rt yillik dasturimizni tugatgach, matematikada yetti xonali sonlarni qo‘shib, ayirib, ko‘paytirish, hatto kasr sonlarni ham qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, ona-tilida ergashgan qo‘shma gaplarni tahlil qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Asosiysi, o‘ziga o‘zi to‘liq xizmat ko‘rsatishi va boshqalarga ham yordam berolishi mumkin, yashayotgan qit’asi, davlatlar nomini, bayrog‘ini, poytaxtlarini, yaxshi ko‘rgan hayvonlarining turi, xususiyatlarini to‘liq o‘rganadi.

– Bugun erta rivojlantirish atamasi ota-onalar o‘rtasida urf bo‘ldi. Erta rivojlanish – erta ta’limmi? Ko‘pchilik buni maktab yoshigacha yozish, o‘qishni bilish, deb tushunadi. Bolalarni erta rivojlantirish bugun qay darajada zarur?

– Odamlarimizda ikki xil fikr bor. Ba’zilar uch yoshgacha barcha bilimlarni berish kerak desa, boshqalar hech narsa o‘rgatmaslik kerak, bola o‘zi rivojlanadi, hech narsa qilish kerak emas, deb hisoblashadi. Montessori esa mo‘tadil tizim. Bizda bola rivojlanishi uchun barcha sharoit yaratilishi lozim. U xohlasa rasm chizishi, xohlasa o‘ynashi, xohlasa matematikadan misol yecholishi kerak. Muhimi, bola qiziqqan ishi bilan shug‘ullanishi shart. Bunda bolaga faqat yo‘nalish beriladi, kuzatib boriladi. Bosim o‘tkazish, jismoniy va psixologik tazyiqlar aslo mumkin emas.

– Montessori maktabida ko‘p vazifalar o‘yin sifatida o‘rgatilar ekan. O‘yin bilan shunchalik katta natijalarga erishish mumkinmi?

– Biz doim “ish” deb gapiramiz. Hech qachon: “Bolalar, yuringlar, o‘yin o‘ynaymiz”, deyilmaydi. Montessorida o‘yinchoqlar yo‘q, faqat materiallar bor. Masalan, haqiqiy qaychi, haqiqiy savat, haqiqiy ko‘zalarni ishlatamiz. Bularning hammasi shisha, metall, chinnidan qilingan. O‘z vazifasini bajara olmaydigan narsalarni esa o‘yinchoq deb atash mumkin. To‘g‘ri, bular kattalar nazdida oddiy mashg‘ulot, lekin bolalar uchun haqiqiy mehnat, o‘zini o‘zi qurish, shaxsiyatini yaratish. Bizning maqsadimiz kelajakda olimlarni yetishtirish emas, baxtli, o‘ziga ishongan va keng dunyoqarashli insonlar tarbiyalash. Montessorichilar ichida buyuk shaxslar ko‘p. Misol uchun, mashhur yozuvchi Gabriel Garsia Markes, facebook hammuassisi Mark Zukkerberg, Jeff Bezos (Amazon), Larry Page (gugl)larni sanash mumkin. Angliya qirollik oilasi qirolicha Dianadan boshlab, barchasi Montessori maktabida tahsil olgan.

Dunyoda oltmish mingta Montessori maktabi bor. Har yili olti millionga yaqin o‘spirin maktabni bitiradi. Ularning hammasi ham mashhur emas, asosiysi, bitiruvchilar o‘z iqtidorini namoyish qilolgan, hayotidan mamnun insonlar.

– Bugun yurtimizda xalqaro maktablar ko‘p. Bu maktablardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olish qanchalik o‘zini oqlaydi? Masalan, til, madaniyat masalalari bor...

– Xalqaro maktablar ko‘payishining juda ko‘p yaxshi taraflari bor. Ingliz yoki rus tilini bola yoshligidan ravon, o‘z ona tilidek o‘rganadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri Oksford, Kembrijda o‘qib, xalqaro darajada tadqiqotlar qiloladi. Dunyodagi barcha ilmiy izlanishlar, maqolalardan xabardor bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Xalqaro standartlarda ishlaydigan maktablar birinchi o‘rinda o‘rganilayotgan til va madaniyatni ilgari suradi. Montessorida esa bunday tushuncha yo‘q. Bizning metodda bola qaysi davlatda, qaysi joyda, qaysi davrda tug‘ilgan bo‘lsa, o‘sha davrga moslashishi shart. Bola tug‘ilib o‘sgan qit’a birinchi o‘rgatiladi. O‘sha joydagi fasllar, yashash tarzi, odob-axloq, madaniyat, ota-ona, oila a’zolari bilan munosabat ko‘nikmasi singdiriladi. Bolaning murg‘ak ongi farqni tushunmagani uchun qaysi tilni o‘rgansa, o‘sha madaniyatni qabul qilib oladi. Maktabimizda asosiy til o‘zbek tili, qo‘shimcha ravishda ingliz va rus tillarida ta’lim beriladi. O‘quvchilarimiz O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sgani uchun olti yoshgacha birinchi navbatda o‘zbek tilini o‘rganishi shart qilib qo‘yilgan. Bizning tilimiz juda boy. Bu tilni go‘zal qilib ko‘rsatish esa bizning vazifamiz. Agar kichik yoshda o‘zbek tili o‘rgatilmasa, bola hech qachon o‘zbekona fikrlay olmaydi.

– Montessori maktablarida ekran vaqti yo‘qmi?

– Maktabimizda bolalarga gadjetlar berish mumkin emas. Ularning hayot tarzida dastlabki olti yilda ekran, televizor, kompyuter, telefon, planshet bo‘lmasligi shart. Chunki bular go‘dakning ham aqliy, ham jismoniy, ham hissiy, ham nutqiy rivojlanishiga bevosita zarar ko‘rsatadi. Bola ekran tomosha qilayotganda passiv holatga tushadi va jismoniy rivojlanishi sekinlashadi. Yaqinda virtual autizm haqida o‘qigan tadqiqotimda ekran bolani har xil nevropsixologik og‘ishlarga olib kelishi mumkinligi yozilgan. Natijada diqqat susayishi, real hayotga qiziqmay qo‘yishi,



odamovilik va tilda logopedik muammolar paydo bo‘ladi. Sababi, multfilmda ovoz kolonkadan chiqadi, og‘iz ochilib-yopiladi xolos. Bolaning nutqi jonli gaplashgandagina rivojlanadi. Chunki, inson qay tariqa nafas olishi va qayerda to‘xtashini, lab, tish harakatlarini to‘liq ko‘radi.

Bola ekrandagi kadrlarni anglay olmaydi. Oddiy suv quyishni multfilmda o‘ttiz soniyada ko‘rsa, aniq tushunmaydi va qayta-qayta ko‘rishni xohlaydi. Hayotda ham o‘sha narsani qidirishni boshlaydi, o‘z-o‘zidan harakatlari tartibsiz ko‘rinish oladi. Ekrandagi qahramonlar agressiv bo‘lsa, ularga taqlid qilishni boshlaydi. Masalan, sherga o‘xshab boshqalarga o‘kirishi, tashlanishi mumkin.

– Chet el maktablaridan nimalarni o‘rganish kerak?

– Ulardan birinchi o‘rinda olishimiz mumkin bo‘lgan narsa – bolaga inson sifatida hurmat ko‘rsatish, o‘zi bilan teng huquqli ko‘rish, katta insonlarday gaplashishdir. Murg‘ak go‘daklarga bosim o‘tkazish, makr ishlatish va yolg‘on gapirish mumkin emasligini anglashimiz zarur. Bola jismoniy jihatdan tazyiq o‘tkazmasak ham rivojlanishi, aytganimizni qilishi, o‘sishi, o‘rganishi mumkinligi xorij tajribasida yaqqol ko‘rinadi.

– O‘tgan asrda millat bolalarini savodli qilishga uringan, maktab ochib darsliklar yaratgan jadidlarimiz faoliyatidan ham xabardormisiz?

– Ha, albatta. Bilasizmi, jadidlarimiz orasida, ayniqsa, Munavvar qori Abdurashidxonov mening idealimdagi qahramonim. Ularning maktab ochishi, o‘quvchilar uchun darsliklar yaratgani, gazeta, teatrlar orqali insonlarga ziyo ulashgani meni qattiq ta’sirlantirgan. Afsuski, barcha niyat, rejalariga erisholmagan bo‘lsalar-da, ularning millat uchun qilgan va qilmoqchi bo‘lgan ishlari katta ahamiyatga ega. Hatto, maktabimizning nomini tanlashda ham ularga tayanganmiz. Munavvar qori Toshkentda ochgan yangi usul maktabi keyinchalik “Namuna” nomini olgan. Biz ham maktabimiz kelgusida ochiladigan o‘zbek Montessori maktablariga namuna bo‘lsin, degan yaxshi niyat bilan shu nomni tanladik. Latviyadan qaytishimga sabab ham o‘zbek bolalarining yuqori sifatli ta’lim yo‘nalishidan foydalanishiga o‘z hissamni qo‘shish edi.

– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat. Siz tilga olgan millat oydinlari uchun armonga aylangan “ta’limi komil” nisbasiga yetishishingizga tilakdoshmiz.

Muyassar IBROHIMOVA suhbatlashdi.

JAHON AYVONIDA

UCH MAMLAKAT HUDUDIGA KIRMANG

“Yevropa Ittifoqi Aviatsiya xavfsizligi agentligi” (EASA) bayonot berishicha, aviakompaniyalarga Eron, Iroq va Livan havo hududiga kirmaslik tavsiya etildi. Bu mintaqadagi davom etayotgan keskinlik va yangi harbiy harakatlar xavfi bilan izohlandi. Bu haqda Al Arabiya xabar berdi.



“EASA” tegishli ogohlantirish 31-avgust-gacha amal qilishini ma’lum qildi. Agentlikning tavsiyasi Eron Islom inqilobi qo‘riqchilari korpusi bayonotidan keyin e’lon qilindi.

AQSH–ISPANIYA ALOQALARI UZILDI

AQSH prezidenti Donald Tramp Ispaniya bilan barcha savdo aloqalarini to‘xtatishni buyurdi va uni NATOdagi “dahshatli hamkor” deb atadi.



U tegishli bayonotni Anqaradagi NATO sammiti doirasida aytdi. Bu haqda “The Telegraph” xabar berdi.

TRANSPORT KIRISHI CHEKLOVI

Qozog‘istonda chegara orqali yonilg‘ini noqonuniy olib chiqib ketishga chek qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlar amal qilmoqda. Bu haqda hukumatdagi brifingda energetika vaziri o‘rinbosari Kayirxan Tutkishbayev ma’lum qildi, deya xabar berdi “Tengrinews”.



Vazir o‘rinbosarining so‘zlariga ko‘ra, amaldagi choralardan biri chegaradosh davlatlardan transport vositalarining kirishiga cheklov o‘rnatish bo‘ldi.

“Hozirda chegaradosh davlatlardan yuk va yengil transport vositalari Qozog‘iston hududiga sutkasiga bir martadan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kirishi mumkin bo‘lgan chora amal qilmoqda”, dedi u.



SUV OMBORI YORILDI

Xitoyning Guansi provinsiyasida joylashgan Liulan suv omborining yorilishi natijasida kamida 39 kishi halok bo‘ldi. Bu haqda hukumat ma’lumotlariga tayanib, “Sinxua” xabar berdi.

Qayd etilishicha, ayni paytda yana to‘qqiz kishi bedarak yo‘qolgan deb hisoblanmoqda. Vaziyatni suv toshqinlarini nazorat qilish va tabiiy ofatlar oqibatlarini tugatish xizmati kuzatib bormoqda.

SARATONNING YANGI DAVOSI

Amerikalik olimlar saraton kasalligini jarrohlik aralashuvisiz 99 foizgacha davolaydigan usulni topishdi.



Soniyasiga 40 trillion marta tebranuvchi molekula yordamida saraton hujayrasi zararsizlantiriladi. Bu yangi usulning ustunligi shundaki, o‘simta bunday iskanjadan qutulib ketolmaydi. Boz ustiga, mazkur muolaja kasallikning barcha turlariga qarshi qo‘llanishi mumkin.

MILLAT FIDOYILARI

BIR BOSHGA IKKI O‘LIM



1938-yil. Mart oyining oxiri. Moskva. Stalin, Molotov, Kaganovich, Voroshilov va Jdanov imzosi bilan navbatdagi qatl ro‘yxati tasdiqlandi (ushbu ro‘yxat hozirda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti arxivida saqlanadi). Unda O‘zbekistondan 165 nafar shaxs nomi qayd etilib, ularning 155 nafari birinchi toifa bilan otuvga mahkum etilgan edi.

Oradan yarim yil o‘tib, 4-15-oktyabr kunlari SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi Toshkent shahrida ish boshlaydi. Bu yerda mart oyida Moskvada tasdiqlangan ro‘yxatdagilar bilan bir qatorda, tergovi keyinchalik yakunlangan boshqa ishlar ham ko‘rib chiqiladi. Shu bois, arxiv hujjatlarida sayyor sessiya davomida jami 396 nafar mahbusning otuvga hukm qilingani to‘g‘risida ma’lumotlarga duch kelamiz.

1938-yil 4-oktyabr kuni 52 nafar yurtdoshimiz ustidan chiqarilgan hukm o‘sha kechaning o‘zida Toshkentdagi maxsus qatlgohda ijro etildi. Davlat xavfsizligi katta leytenanti Shishkin, SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi bosh harbiy prokurori yordamchisi, birinchi maqomdagi harbiy yurist Shulsan imzo chekkan bu hukmda, o‘sha ellik ikki nafar inson orasida Karim Abubakirov nomi ham bor edi.

Karim Abubakirov 1896-yil 20-iyulda Kazalinsk shahrida hunarmand oilasida tug‘ilgan. Otasi telpak tikish bilan shug‘ullangan. Inqilobga qadar xususiy mehnat va savdo bilan shug‘ullangan Karim Abubakirov keyinchalik sovet davlat muassasalarida xizmat qildi, qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritdi va mashina-traktor stansiyasi direktori lavozimigacha ko‘tarildi.

Afsuski, hujjatlar qahramonimizning qariyb yigirma yillik mehnat faoliyatini izchil tiklash imkonini bermaydi. Bu holat faqatgina Karim Abubakirov ishiga xos emas, qatag‘on qurbonlarining ko‘pchiligiga oid arxiv jildlarida ayni manzara bilan bot-bot yuzlashamiz. Tergov organlari siyosiy ayblovni asoslashga ko‘proq e’tibor qaratgani bois, shaxslarning davlat va jamiyat oldidagi xizmati haqidagi ma’lumotlar ko‘p holda to‘liq saqlanmagan. Shuning ortidan bugun Karim Abubakirovning qanday rahbar bo‘lgani emas, uni qanday ayblaganlarini batafsilroq o‘qishga majburmiz.

Karim Abubakirov hayoti Turkistonda davlat tuzumi ketma-ket almashgan, ijtimoiy munosabatlar tubdan o‘zgargan davrga to‘g‘ri keldi. Hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha, u 1913-yildan VKP(b) safida bo‘lgan. Uzoq yillar turli lavozimda mehnat qilgan. Qamoqqa olinishi arafasida esa Kalinin nomidagi 1-mashina-traktor stansiyasi direktori vazifasini bajarayotgan edi. O‘sha yillari mashina-traktor stansiyalari qishloq xo‘jaligini yuritishda hal qiluvchi bo‘g‘in hisoblanar, ularga rahbarlik qilish esa katta siyosiy ishonch ramzi sanalgan.

Qatag‘on insonni yolg‘iz hukm qilmasdi. Tergov ishi ochilgan zahoti uning yaqinlari ham hujjatning ajralmas qismiga aylanardi. Arxiv anketasidan ko‘ramizki, bayonnomalarda Karim Abubakirovning turmush o‘rtog‘i Asima Abduqahhorova, qizi Nuroniya va onasi Naima Mamatovna haqida ham qisqa ma’lumotlar qayd etilgan. Qatag‘on arxivlari bilan ishlar ekansiz, bunday ma’lumotlarga befarq qarab bo‘lmaydi. Chunki aksar hollarda qurbonlar shaxsiyati, taqdiri aynan ularning yaqinlari tomonidan ko‘rsatilgan jonbozliklar orqali ochiqlanadi: yillar davomida yozilgan arizalar, oqlov talab qilingan murojaatlar, arxiv eshiklarini qayta-qayta taqillatgan farzandlar va turmush o‘rtoqlarining xatlari bugun ko‘plab taqdirlarni qayta tiklash imkonini bermoqda. Afsuski, Karim Abubakirov ishida bunday hujjatlar uchramaydi. Shu bois, uning oilasi bu fojiani qanday qarshi olgani, uning nomi uchun kurashganmi-yo‘qmi, noma’lumligicha qolmoqda. Tadqiqotchi uchun bunday javobsiz savollar ham arxivning o‘zi kabi muhimdir.

1937-yil 27-sentyabr kuni Karim Abubakirov VKP(b) safidan o‘chiriladi. Bu qaror uning taqdiridagi hal qiluvchi burilish bo‘lgan. Oradan atigi ikki kun o‘tib, 29-sentyabr kuni u O‘zbekiston Ichki ishlar xalq komissarligining Kalinin rayon bo‘limi tomonidan hibsga olinadi. Unga nisbatan qabul qilingan ehtiyot chorasi haqidagi qarorga davlat xavfsizligi kichik leytenanti Selin imzo qo‘yadi. Endi kechagina mashina-traktor stansiyasiga rahbarlik qilgan xo‘jalik xodimi tergov hujjatlarida “burjua millatchisi”, “trotskiychi”, “aksilinqilobchi” va “xalq dushmanlarini madh etuvchi shaxs” sifatida tavsiflana boshlaydi.

E’tibor bering, tergovning dastlabki kunlaridayoq ayblovning yo‘nalishi belgilab bo‘lingan edi. Karim Abubakirovga nisbatan O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi birinchi qismi va 67-moddalari qo‘llanadi. Bu moddalar odatda sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy faoliyat, millatchilik va davlatga qarshi uyushmalarda ishtirok etganlik kabi og‘ir ayblovlarni qamrab olardi. Demak, tergov uning ayrim xatti-harakatlarini tekshirishdan emas, muayyan siyosiy qiyofa yaratishdan boshlangan.

1937-yil 1-oktyabr kuni birinchi so‘roq o‘tkaziladi. Bayonnomada Karim Abubakirovning shaxsiy ma’lumotlari qayta sanab chiqiladi: tugallanmagan oliy ma’lumotli agronom, mashina-traktor stansiyasi direktori, hunarmand, partiyadan o‘chirilgan rahbar xodim. Biroq shu hujjatning o‘zidayoq unga mutlaqo boshqa mazmundagi ayblovlar qo‘yiladi. Go‘yo u 1932-yildan boshlab “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi sifatida kommunistik partiyaga qarshi qo‘poruvchilik ishlarini olib borgan, “zararkunandalik” bilan shug‘ullangan va sovetlarga qarshi targ‘ibot yuritgan.

Arxivda saqlangan keyingi hujjatlarga ko‘ra, tergov shu bilan cheklanib qolmaydi. 1937-yil 20-noyabr kuni Selin tergov muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qiladi. Bu qarorda avvalgi ayblovlar yanada og‘irlashtiriladi. Endi Karim Abubakirov faqat millatchi tashkilot ishtirokchisi emas, ilgari eserlar partiyasi safida bo‘lgan, keyin VKP(b)ga kirib olgan, sovet tizimiga “ichkaridan zarar yetkazish” uchun partiyadan foydalangan shaxs sifatida ham tavsiflanadi. Qizig‘i shundaki, uning mehnat faoliyati, mashina-traktor stansiyasiga rahbarlik qilgan yillari yoki agronom sifatidagi ish tajribasi haqida tergov deyarli hech narsa demaydi.



Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Oradan qariyb bir yil o‘tib, tergov tugallanadi. Yig‘ilgan bayonnoma, qaror va ayblov xulosalari SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasiga yuboriladi. Sud muhokamasi uzoq davom etmaydi. 1938-yil 4-oktyabr kuni Karim Abubakirov O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bo‘yicha aybdor deb topilib, otuv jazosiga hukm qilinadi. Shu tariqa, Karim Abubakirov qatag‘onning navbatdagi qurboniga aylandi.

“Bir boshga bir o‘lim”, deydi xalq. Biroq qatag‘on bu qadim hikmat, mezonga ham chang soldi. Karim Abubakirov kabi shaxslar avval o‘z nomi, mehnati, xizmatiga qaramay, “xalq dushmani” degan tamg‘a bilan ma’nan o‘ldirildi. So‘ng otuv hukmi bilan jisman yo‘q qilindi. Uning taqdiri bir boshga tushgan ikki o‘limning achchiq misoli bo‘lib qoldi...

TARIX VA TAQDIR

PANJA VA YURAKDAGI CHANDIQ



Sovet tuzumi davrida millatimiz boshiga tushgan qatag‘on – tarixga “katta terror” nomi bilan kirgan vahshat zamonlardan buyon deyarli to‘qson yil o‘tdi. Bu davrning asl guvohlari allaqachon chin dunyoga rixlat qilishgan. Oramizda yoshi to‘qsondan hatlagan tirik guvohlar sanoqligina. Ularning “tirik guvohligi” – ota-onalaridan eshitganlari, davr qiyinchiliklarini mushtdek boshlari bilan tortganlaridan nariga o‘tmaydi. Hujjatgohlarda saqlanayotgan “jinoyat ish”lari, o‘sha davr gazetalari taxlamlarini “tilsiz guvohlar” sifatida qabul qilamiz. Bu sarg‘aygan qog‘ozlarda fakt va raqamlar bor, qiynoqlar ostida imzolangan “iqrornoma”lar bor, xolis va noxolis guvohlarning “ko‘rsatma” va “chaquv”lari bor. Tom-tom “jinoiy ish”larda tirik insonning iztiroblari, tavba-yu tazarrulari, unsiz faryodlari sukutga ketgan.

O‘ttiz-qirq demaylik, yigirma yillarning nariberisida o‘sha davrni ko‘rgan, qatag‘onning palag‘da nafasi bo‘g‘ziga bir umr yopishib, tunlari qo‘rquvdan alahsirab uyg‘onib ketadigan insonlar yonimizda edi. Ularning aksari qatag‘on qo‘rquvidan bir umr qutula olmadilar, sassiz-sadosiz yashab o‘tmoqni ma’qul ko‘rdilar. Vahshat zamonida kimlar kimlarni sotgani, nima evaziga o‘z eldoshi, qavmdoshini muqarrar o‘limga yo‘llaganini bilishardi ular. Beparvoligimiz sabab so‘nggi guvohlarni achchiq va ayanchli kunlarimiz uchun, yurt qayg‘usida dor ostiga tikka borgan jadid bobolarning himoyachilari maqomida tarixiy sud minbariga da’vogarlar sifatida chiqara olmadik. Bu jarayonda qalam ahli bong urishdan ko‘ra sukutni afzal ko‘rgani ham bor gap.

...Qalandar buva Yusupov qishlog‘imizda tuzilgan kolxozlardan biriga raislik qilgan. Bu inson salkam bir asr umr ko‘rdi. Qishloqning eng yoshi ulug‘ insoni bo‘lsa-da, to‘y-u ma’rakalarga qatnashmas, xonanishinlik odati bor edi.

O‘ttiz yillar burun Qalandar buvani yo‘qlab bordim. Maqsadim: o‘z davrida xon navkari bo‘lgan, keksaygan vaqtida ham otdan tushmagan buvam nima uchun 1936-yilgacha kolxozga kirmay, yakka xo‘jalik bo‘lib oilasini boqqani, ayni o‘sha yili bahorda tizza bo‘yi kelib qolgan bug‘doyini NKVD xodimlari kelib, payhon qila boshlaganlarini ko‘rib (ikki ayolidan farzandlari ko‘p bo‘lgan), noiloj kolxozga kirgani va o‘sha kuzda to‘satdan olamdan o‘tgani sirini bilmoq edi. Qalandar buva Hasan navkar buvam haqida ko‘p qiziq gaplarni so‘zlab berdi. Keksalikda qulog‘i og‘irlashgan, ko‘zi xira tortgan bo‘lsa-da, xotirasiga shikast yetmagan ekan.

Ketar chog‘imda Qalandar buva ichida bir umr saqlab kelgan iztirobni alam bilan gapirib berdi. Kutilmagan gurungni boshlashdan oldin chap panjasini ko‘rsatdi: “Bu chandiq nimadan deb o‘ylaysan?” Qoq suyak bo‘lib qolgan qo‘l panjasining oriqqina etida qizil-qora aralash chandiq sezilardi. Yelka qisdim, biror baxtsiz hodisa oqibati bo‘lsa kerak, degan xayolga bordim. Qalandar buva panjasini aylantirib, ustini ko‘rsatdi – bu yog‘ida ham shunga o‘xshash chandiq izlari ko‘zga tashlanardi. “Ehtiyotsizlikdan biror o‘tkir jism kirib ketganmi?” deb so‘radim. Qalandar buva bosh chayqab, “uh” tortdi: “Qaniydi, shunday bo‘lsa! Qo‘lim uzilib tushgani yaxshiroq emasmidi?”

U kishi panjasidagi chandiq tarixini so‘zlab berganida etim jimirlab, atrofga alanglaganim bor... Mana, siz ham eshiting.

“Qama-qama boshlangan yili yangi tuzilgan kolxozda rais edim. Qo‘shni Telman kolxozi raisi Sobir Egamovni butun faollari bilan bir kunda qamashdi. Sobir aka bilan bir elatdanmiz, bolalikdan o‘ynab-o‘sganmiz. Bugunmi-ertami, meni ham qamashadi, degan o‘yda yuribman. Sobirning-ku, ikki qizi qoldi, men esa kambag‘allikdan oila qurishga ulgurmaganman. Ortimda bola-chaqam yig‘lab qolarmidi, degan fikr taskin ham beradi.

Nihoyat, meni ham chaqirishdi. Xonqa tuman NKVD boshlig‘i Gabdullin degan no‘g‘oy xonasiga qo‘rqa-pisa kirib bordim. U salomimga alik olmadi, sen kimsan, deb so‘ramadi ham. Tortmasidan bir qog‘ozni olib, qo‘limga berdi: “O‘qi, tanish va qo‘l qo‘y!”

Qog‘ozda yigirma ikki kishining ismi-sharifi yozilgandi. Ularning ko‘pchiligi men rais bo‘lgan kolxoz hududidan, qolganlari qo‘shni kolxozdan. Aksarini tanimayman ham. Uzun ro‘yxat “xalq dushmani” sifatida hibsga olinishi kerakligi bo‘yicha chaquv bo‘lib, uning ostiga “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinishi kerak bo‘lgan shaxslar haqida ma’lumot beruvchi” deya mening ismi-sharifim va lavozimim yozilgan, shu bugungi sana ham tirkab qo‘yilgandi.

Ro‘yxatdagi ayrim odamlarni tanimasligimni, taniganlarim kolxozda kecha-yu kunduz ishlab yurgani, uylanganlari ro‘zg‘orini bir amallab sudrayotgani, uylanmaganlari to‘y orzusida bor kuchini kolxoz ishiga berayotganlarini aytdim. Gabdullin gapimni tugatishga qo‘ymay o‘shqirdi: “Qo‘l qo‘ymasang, o‘zingni ham ro‘yxatga qo‘shaman!” Men yana bazo‘r rad qildim, axir, shuncha begunoh odamni qamatib, yaqinlari qarg‘ishiga qolib ketishni kim istaydi?

Gabdullin xodimlarini chaqirdi. Ular meni devor yaqinida turgan stul yoniga kuch bilan o‘tqazishdi. Birisi yelkamdan bosib turdi, yana birisi chap qo‘limni stul ustiga qayirib, panjamni ochdi. Shu payt uchinchi birovi qo‘lida cho‘kich bilan kirdi va arava mixini panjam ustiga qo‘yib, ustiga cho‘kichni tekkizdi. Arava mixining uchi o‘tkir ekan, terim ostiga sal kirib, ozroq qon chiqdi. Og‘riqdan tishlarimni qisib oldim. Gabdullin qog‘ozni oldimga qo‘yib, qo‘limga qalamni tutqazdi: “Qo‘l qo‘yasanmi?” Men bosh chayqadim. Gabdullin cho‘kich ushlab turganga “Davay!” dedi. Katta cho‘kich mixga urildi. Ko‘zimdan o‘t chiqib ketdi. Baqirmaslik uchun tilimni tishladim. Cho‘kich uch marta tushganida mix panjamni teshib, stul taxtasiga qattiq teggan sasi eshitildi. Stul usti, ust-boshim, hamma yoq qon. Hushim boshimdan uchgan. Cho‘kich yana ikki-uchmi urildi va qo‘lim stolga mixlanib qoldi...”

Qalandar buva lablarini qimtib, jim qoldi. Tanam titrog‘idan tilim kalimaga kelmas, ko‘z o‘ngimga salkam bir yarim qarich keladigan barmoqdek yo‘g‘on arava mixi va uni tinmay inson panjasiga qoqayotgan kimsa kelardi...

Nihoyat, so‘rashga jur’at qildim: “Qo‘l qo‘ydingizmi?”

Qalandar buva yerga qarab bosh chayqadi: “Jon shirin ekan, inim. Yig‘lab-yig‘lab qo‘l qo‘ydim...”

Endi gap ortiqcha edi, xayrlashib, eshik oldiga borgan vaqtimda, Qalandar buva yig‘lamsiragan oynayi jahonda ko‘rsatuvlar namoyish qilinganida burnini jiyirib o‘tirar, istiqlol zamonasida ikki kishi yig‘ilgan davrada SSSRni og‘zidan ko‘pik sochib maqtashdan tiyila olmasdi.

Shu odam o‘sha mash’um yillarda komsomol faoli bo‘lib, ko‘plab qishloqdoshlari ustidan NKVDga “chaquv” yozib qamatib yuborgani, qamatganlarining ko‘pchiligi qaytib kelmagani haqida zamondoshlari ko‘p gapirishardi. Qarangki, sovetlarga sadoqat bilan xizmat qilgan, ko‘plab “xalq dushmanlari”ni “fosh qilgan” kimsani aynan ishonganlari ayab o‘tirmagan. 1947-yilda elatdoshi Madrim Ollaberganov ustidan navbatdagi “chaquv”i o‘zining boshiga yetadi. Ollaberganov Ikkinchi Jahon urushida qatnashgan, orden bilan taqdirlangan inson mahkamada o‘zini oqlay oladi, natijada Ismoil yo‘sak tuhmatchi sifatida uch yilga qamalib ketadi.

Qishlog‘imizda o‘sha davrda militsiya tizimida ishlagan Ro‘ziboy Tojiyev degan odam ham ko‘pchilikni “chaquv” bilan qamatib yuborgan. U hatto Xiva madrasasida tahsil olgan tug‘ishgan tog‘asi Jumaboy oxun buvani hibsga olishga bosh-qosh bo‘ladi. Oxun buva bir tasodif tufayli qamoqdan omon qoladi. Qizig‘i, o‘zini jahannamga yuborishga uringan tug‘ishgan jiyanini kechiradi, o‘lguncha bordi-keldini uzmaydi.

Yana bir qishloqdoshimiz Abdulla Ollaberganovning taqdiri boshqacha kechgan. Oddiy dehqonning o‘g‘li sovetlar yurtga yaxshilik keltiradi, deb ishonib, birinchilardan bo‘lib partiyaga Ismoil yo‘sak laqabli hamqishlog‘imiz uzoq yashadi. Hatto, to‘qson yoshida ham yosh yigitlardek kostyum-shim kiyar, umrida biror marta masjid ostonasini bosib o‘tmagan (garchi uyi masjiddan ikki yuz qadam masofada joylashgan bo‘lsa-da), oshkoralik davrida qatag‘on haqida ohangda so‘nggi so‘zlarini alam bilan aytdi: “O‘sha yigirma ikki odamdan to‘rt nafari tirik qaytib keldi. Qaytmaganlarning yetim qolgan bolalari ko‘zidan bir umr qochib yashayapman”.

Qalandar buvaning boshiga tushgan bu lahzalarni tasavvur qilishning o‘zi og‘ir edi. Buva chin dunyo kishisiga aylanganiga ko‘p zamonlar bo‘ldi. Qariyaning tazarrusini endigina oshkor qilyapman...

kiradi, Bog‘otda kolxozlar tuzishda faollik ko‘rsatadi, tumanda ilk MTS (mashina-traktor stansiyasi) tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Ollaberganov texnika dehqonning og‘ir mehnatini yengillashtirishini bilib, bu jabhada jonkuyarlik ko‘rsatadi, yuzlab yoshlarni traktorchilikka o‘qitib, yangi keltirilgan texnikalarni boshqarish, buzilganda qanday ta’mirlash ishlariga o‘rgatadi. Shu xizmatlari uchun tumanda birinchi bo‘lib orden ham oladi.

1937-yil bahorida uni obqo‘mga chaqirib, suhbatdan o‘tkazadilar va ikki-uch kun ichida Buxoro tumanlaridan biriga birinchi rahbar bo‘lib borishi kerakligini aytadilar. O‘ttiz ikki yashar yigit uyiga kelib, oilasini bo‘lg‘usi hayoti – musofirlikka hozirlab yurgan vaqtida to‘satdan NKVDga chaqirishadi va qo‘liga o‘zi bilan MTSda ishlagan bir guruh “xalq dushmanlari” ro‘yxatini berib, imzolashni so‘rashadi. U imzolashdan bosh tortadi. NKVD boshlig‘i “O‘z oyog‘ingizga o‘zing bolta uryapsan! Endi umring traktor moyiga bulanib o‘tadi”, deydi. Haqiqatan ham, ikki kundan so‘ng unga partiyaviy chora berib, rahbarlikdan olishadi.

Abdulla buvaning qolgan umri kolxozda oddiy traktorchilik bilan o‘tdi. Garchi uzoq yillar mehnat sohasida tumanda yagona ordenli inson bo‘lsa-da, birorta bayram yoki tadbirga boshqa chaqirishmadi. Abdulla buva uzoq umr ko‘rdi – salkam yuz yoshida vafot etganida janozasiga viloyat va tuman rahbarlari kelishdi. Uni “birinchi kommunist” sifatida emas, qatag‘on qurboni maqomida izzat bilan dafn qilishdi...

Xorazmning yuzdan bir bo‘lagi hisoblanmish Qulon Qorabog‘ qishlog‘ida mash’um yillarda yashash taqdiriga yozilgan insonlar hayotidan ayrim parchalarni keltirdik, xolos. Ularni ayblash niyatidan yiroqmiz. Har kim umrida qilgan ayb-u xatosi uchun Haq oldida javob beradi. Qolaversa, hozirda sobiq sovet tizimini maqtaydigan ayrim kimsalar “Stalin Qodiriyni shaxsan tanimagan, uni yonidagi safdoshlari sotgan”, degan g‘alati falsafani o‘zlariga qalqon qilishadi. Aynan sovetlar dohiysi qarori bilan qatag‘onga katta yo‘l ochilgani, har kuni Moskvadan qancha odamni otish, qanchasini surgun qilish to‘g‘risida reja kelib turgan kezda o‘z jonini asrash evaziga boshqalardan “xalq dushmani” yasash majburiyatida qolgan odamlar oz bo‘lmagan, axir! O‘sha kimsalarning aksari sal o‘tmay o‘zlari sotgan odamlar ortidan ketgani yanayam dahshatli!

Esimda, oshkoralik zamonida viloyat televideniyesida urganchlik bir keksa kishi qatag‘on zamoni haqidagi so‘zida NKVD xodimlari qo‘shnisidan “xalq dushmani” yasashga urinib, undan bir parcha “chaquv” olishga harakat qilishgani, imzo qo‘yishdan bosh tortganida, qo‘l panjasiga arava mixi qoqishganini aytib, panjalaridagi izlarni ko‘rsatayotib, beixtiyor ko‘zlariga toshib kelgan yoshlarni yengi bilan artgandi. U o‘shanda imzo qo‘yganmi-yo‘qmi, bilmaymiz – gurungi yakunlanmay qolgandi... Demakki, qatag‘on ijrochilari bo‘lmish jallodlar rejani bajarish uchun tajriba almashib, qiynoqning vahshiyona usullarini qo‘llagan, ruhan sinmagan insonlarni jismonan majruh qilgan.

Tarix qatlarida qolgan bunday vahshiyliklarni yozishdan maqsadimiz, bugungi avlodni o‘tmishga teran nigoh bilan boqish va tegishli saboq chiqarishga da’vat etish, xolos. O‘qish va uqish har kimning zehniyatiga havola.

Ro‘zimboy HASAN



“Adl-u ehson bilan jahon gulshani obod bo‘lur.

Amir TEMUR”

TAQDIMOT

Xabaringiz bor, shu kunlarda yurtimizda “Islom sivilizatsiyasi: tinchlik, bag‘rikenglik va ilm-ma’rifat yo‘li” mavzusidagi I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi bo‘lib o‘tmoqda. Unda dunyoning 50 dan ortiq davlatidan kelgan 300 ga yaqin jamoat arboblari, muftiylar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari va ulamolar ishtirok etmoqda.

Martabali mehmonlar safida Ozarbayjon Respublikasi delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, shayxulislom Ollohshukur Poshshozoda ham ishtirok etmoqda.

E’TIROF



Kuni kecha “Renessans” kino uyining muhtasham zalida Ollohshukur Poshshozoda hazratlarining “Qardoshlik va ittifoqchilikning oliy nuqtasi” kitobi taqdimoti ham yuksak saviyada o‘tkazildi. Kitob 2026-yilda Bokuda chop etilgan bo‘lib, uning o‘zbek tiliga o‘girmasida O‘zbekistonning Ozarbayjondagi elchixonasi jamoasi qatnashgan. Ushbu kitob, muallif ta’biriga ko‘ra, Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi abadiy do‘stlikka bag‘ishlangan badiiy solnomadir.

Kitob shunday so‘zboshi bilan boshlanadi: “Ona vatanim Ozarbayjon bilan ikkinchi vatanim bo‘lgan O‘zbekiston o‘rtasidagi abadiy birodarlik aloqalariga bag‘ishlayman”. Kitobni o‘qishga muyassar bo‘lgan odam bu shunchaki “ko‘ngil uchun” aytilgan gap emasligiga iqror bo‘ladi. Chunki: “Men umrimning eng muhim bosqichlaridan birini aziz O‘zbekistonda o‘tkazganman. ...Buxoroda Mir arab madrasasini ziyorat qilganimda, Toshkent Islom institutida bo‘lganimda talabalik yillarimning hayajonli kunlarini eslayman, menga o‘z oilasidek mehr bilan bag‘rini ochgan insonlarni yodga olaman...”

Shuningdek, ikki qardosh xalqning shonli o‘tmishi, ikki Davlatning birodarligi, Millat yetakchilarining birdamligi, tashqi va ichki siyosatda uzoqni ko‘zlab, oqilona tashlanayotgan qadamlari e’tirof etiladi: “O‘zbekiston rahbarining quvonchli kunlarda ham, murakkab va sinovli pallalarda ham chinakam birodarlik yondashuvini namoyon etishi... Qardosh O‘zbekistonning tuhfasi – Fuzuliy shahridagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi 1-sonli umumta’lim maktabi – Ozod Qorabog‘ va Sharqiy Zangazur hududlaridagi ilk birodarlik sovg‘asidir”.

Taqdimot so‘ngida Shayx hazratlari so‘z boshlaganlarida tarjimonga hojat yo‘qligiga, ikki turkiy elning dili va tili azaldan bir ekaniga yana bir bor amin bo‘ldik:

“Shayxulislom sifatida men dunyoning ko‘plab davlatlarida bo‘lganman, biroq O‘zbekistondagidek ezgu niyatga asoslangan bag‘rikenglik muhiti, ma’rifatparvarlik va ma’naviyat masalalariga bunday yuksak darajadagi e’tiborni boshqa joyda uchratmaganman”.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilda Ollohshukur Poshshozodaning “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangani ham Shayx hazratlarinig ikki davlat o‘rtasida, qolaversa, butun turkiy davlatlar birligi yo‘lida ko‘rsatayotgan shijoati va sharafli xizmatlarining yuksak e’tirofidir.

Jamoliddin BADALOV

ZOMINDA yana adabiyot bayrami



Boshlanishi 1-sahifada.

Seminar poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi bilan boshlandi. Shundan so‘ng ishtirokchilar joylashgan avtobuslar Zomin sari yo‘lga chiqdi. Mehmonlarni Jizzax viloyati hokimligining mas’ul vakillari kutib oldi. Anjumanni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid samimiy tabrik so‘zlari bilan ochib berdi. Tadbirning kirish qismi qizg‘in mushoiraga ulanib ketdi.

Seminarning ikkinchi kunida yosh ijodkorlar nazm, nasr, badiiy jurnalistika, badiiy tarjima va baynalmilal adabiyot, bolalar adabiyoti, adabiy tanqid va dramaturgiya yo‘nalishlari bo‘yicha sho‘balarga bo‘linib, ustozlar sabog‘idan bahramand bo‘ldi. Ularga taniqli shoir va yozuvchilar biriktirilib, havaskor ijodkorlarning har biri bilan individual ish olib borish imkoniyati yaratildi.

Seminar davomida ustoz adiblarning ijodiy tajribasi va saboqlari yoshlar uchun katta maktab vazifasini o‘tadi. Ayniqsa, anjuman doirasida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov bilan uchrashuv va uning “Yaldo kechasi” kitobi taqdimoti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “So‘z” loyihasi a’zolarining ushbu asar asosida sahnalashtirgan she’riy spektakli ishtirokchilarni yanada ilhomlantirib yubordi.

– Bu yilgi seminarimiz haqiqiy bayramga aylanib ketdi, – deydi O‘zbekiston xalq shoiri Xosiyat Bobomurodova. – Hassos qalb bilan she’riyatga dadil kirib kelayotgan yoshlar ko‘p ekan. Qo‘shni davlatlardan kelgan vatandosh ijodkorlarni ham tingladik. Bu yerda faqat asarlarni muhokama qilmadik, balki erkin fikrlash, adabiyotga mas’uliyat bilan qarashni shakllantirishga harakat qildik. Menimcha, har bir ijodkorda yangi asar yozishga ishtiyoq, o‘z ustida ishlashga talab, ijodiy faoliyatga mas’uliyat hissi ortdi. Ular seminardan katta taassurotlar va ma’naviy quvvat oldilar, deb o‘ylayman.

Seminarning yakunlovchi qismida eng yaxshi deb topilgan asarlar e’tirof etilib, “Birinchi kitobim” loyihasida chop etish uchun taqdim qilindi. Shuningdek, hamkasblarimiz eng yaxshi ishtirokchilarga “Tilda, fikrda, ishda birlik” nomli “Jadid” yilnoma kitobini taqdim qilishdi. Yozuvchilar uyushmasi tomonidan ham ishtirokchilar uchun alohida sovg‘alar topshirildi. Bir so‘z bilan aytganda, “Zomin – 2026” adabiyot anjumani betakror nazm-u navosi, nash’-u namosi bilan ko‘ngillarga jo bo‘ldi.

Ustoz ijodkorlar nazariga tushgan iqtidorli yoshlarning asarlarini gazetamizning kelgusi sonlarida o‘qishingiz mumkin.

Muhayyo RUSTAMOVA







YANGI KITOBLAR

G‘AROYIB VOQEALAR

“Feruzbek sekin orqasiga o‘girildi. Yerda yotgan kitobga razm soldi. Eshitganlariga ishonqiramay, ko‘zlarini qo‘llari bilan uqaladi.

– Nahotki, kitob gapirgan bo‘lsa? – dedi o‘ziga o‘zi sekin ovozda.



– Ha, polvon bola, men gapiryapman. Qani, yonimga kela qol-chi. Yaqindan tanishib olaylik, – kitobdan yana ovoz keldi.

Feruzbek kitob tomon yaqinlashdi. Bor kuchini bir joyga jamlab, kitobni yana ochishga qaror qildi. Uning qo‘llari qaltirardi, ko‘zlarini yumib sekin kitobni qayta ochdi”...

Xo‘sh, keyin nima bo‘ldi? Buning davomini bilish uchun xuddi ushbu asar qahramoni Feruzbek singari kitobni ochish kerak bo‘ladi – bu bolalar yozuvchisi Tozagul Jumanova qalamiga mansub “Sehrli kitob” qissasidir.

Kitob taqdimida yozilganidek, muallif bolalar ruhiyatini nozik his qiladi, shu bois, uning qahramonlari ishonarli tasvirlanadi. Asar tarbiyaviy ahamiyatga ega, ularda mehr-oqibat, do‘stlik, halollik, kattalarga hurmat va tabiatga mehr kabi insoniy fazilatlar ulug‘lanadi.

Endi yana bir parchaga e’tibor bering: “Dunyoning ishlariga sadag‘ang ketsa arziydi. Bir-biridan ajoyib va g‘aroyib voqealar guvohi bo‘lgach, ko‘zlaringga ishonmaysan. Barini ertakmi, deb o‘ylaysan. Aslida, hammasi o‘ngda – sen yashab o‘tayotgan hayot sahnasida yuz berayotgan bo‘ladi. Ba’zida o‘zing ham turli-tuman hodisalarning qahramoniga aylanib qolasan... Akang qarag‘ay hayoti ham juda qiziq voqea-hodisalar bilan davom etmoqda. Bu yil 5-sinfni tugatib, yozgi ta’tilda qishloqda tarallabedod qilib o‘ynab yurardim. Javzo adog‘i edi”... Xo‘sh-xo‘sh?

Voqeaning qiziq joyi endi boshlandi. Faqat buni bilish uchun bolajonlar



taniqli ijodkor Erpo‘lat Baxtning “O‘rmon olimpiadasi” kitobini, xususan, undagi “O‘zimizning Quqquboy yoxud kelajakka sayohat” nomli ertak-qissani o‘qib chiqishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, to‘plamdan muallifning bolalarga atalgan she’rlari ham joy olgan.

Yosh kitobxonlarimizga tuhfa qilinayotgan bu asarlar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Adabiyot” nashriyotida chop etilgan.

Nigina ISKANDAROVA

OGOHLIK

Bugun globalizatsiya va integratsiya jarayonlari insonlarga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatayotgandek. Buni biz birgina Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida 2025-2026-yilning dastlabki 5 oyida 24 nafar voyaga yetmagan qizning viloyatdagi IIBga qarashli voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirilganida anglaymiz. Yana ham ayanchlisi, shu muddat mobaynida voyaga yetmagan 15, 16, 17 yoshli qizlarning 6 nafari ona bo‘lgan.



QIZINI ASRAGAN – YUZINI ASRAGAN

Aholisi 150 mingga yaqin bo‘lgan tumanda shuncha achinarli vaziyatning kuzatilishi barchamizni xavotirga solishi shart.

Yoki so‘nggi ikki yilda Sirdaryo tumanining o‘zidan 170 nafar farzandlar bobo-buvilar vasiyligiga qoldirilgan. So‘rovlar jarayonida, ayniqsa, qizlarning tarbiyasiga bobo-buvilarning kuchi ham, quvvati ham yetmayotgani oydinlashdi. Bu esa yana yangi savollarga sabab bo‘lyapti.

Bir qiz bolaning taqdiri – bir oilaning emas, butun jamiyatning masalasi. Chunki bugun e’tiborsiz qoldirilgan muammo ertaga kattaroq ijtimoiy masalaga aylanishi mumkin. Voyaga yetmaganlarning ona bo‘lishi – jamiyatning tarbiya, mas’uliyat va himoya tizimi o‘sha muhitda sust ishlayotganini ko‘rsatuvchi oynadir.

Bu kabi salbiy holatlarni faqat oqibat sifatida emas, sabablar nuqtayi nazaridan ham tahlil qilishimiz kerak. Nega bunday holatlar sodir bo‘ldi? Qaysi joyda tarbiya, nazorat yoki tushuntirish ishlarida bo‘shliq bor? Qanday qilib yoshlarning huquqiy va ma’naviy himoyasini kuchaytirish mumkin?

Savollar ko‘p...

Jamiyatning qiyofasi, avvalo, xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Qizini asragan, uning ilm olishi, kasb egallashi va o‘z o‘rnini topishi uchun sharoit yaratgan millatning kelajagi ham mustahkam bo‘ladi. Qizlar tarbiyasi – bu nafaqat oila, balki davlat, jamiyat va jamoatchilikning ham vazifasidir.

Bahrom BOYMURODOV

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 491
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 902
Lotin yozuvida – 11 589
Media kuzatuvchilar – 85 424
Buyurtma: G – 740
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 66

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI